O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

SHNQ 2.08.01-24 “TURAR JOY OBYEKTLARINI LOYIHALASH” SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 25-sentabrda hisobga olindi, hisob raqami 293]

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son “Ma’muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi 231-son “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ayrim shaharsozlik normalari va qoidalari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Energetika vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

4. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir v.b. Sh. XIDOYATOV

Toshkent sh.,
2024-yil 14-avgust,
01/2-57-son
Kelishildi:

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi B. YUSUPALIYEV

2024-yil 9-avgust

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri K. SHARIPOV

2024-yil 9-avgust

Raqamli texnologiyalar vaziri Sh. SHERMATOV

2024-yil 25-iyul

Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDASHEV

2024-yil 26-iyul

Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri X. UMAROVA

2024-yil 27-iyun

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. ABDUXAKIMOV

2024-yil 15-iyul

Energetika vaziri J. MIRZAMAHMUDOV

2024-yil 25-iyul

Suv xo‘jaligi vaziri Sh. XAMRAYEV

2024-yil 31-iyul

Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori M. OLLOYOROV

2024-yil 2-avgust

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va
uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining
2024-yil 14-avgustdagi 01/2-57-son
buyrug‘iga
1-ILOVA

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda SHNQ deb yuritiladi) balandligi 50 m va 16 qavatdan oshmagan (16-qavat ham kiradi) turar joy obyektlarini loyihalash va rekonstruksiya qilishga oid talablarni belgilaydi.

Ushbu SHNQning talablari nogironligi bo‘lgan bolalar internat uylari, joylashtirish vositalari, ko‘chma (ko‘chirib yuriladigan) binolarni loyihalashga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

1. Mazkur SHNQda quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar keltirilgan:

SHNQ 1.03.03-23 “Qurilish obyektlarini loyihalashtirish”;

SHNQ 2.01.01-22 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma’lumotlar”;

SHNQ 2.01.02-04 “Bino va inshootlarning yong‘in xavfsizligi”;

QMQ 2.01.03-19 “Seysmik hududlarda qurilish”;

SHNQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi”;

SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish”;

SHNQ 2.01.07-21 “Yuklamalar va ta’sirlar”;

SHNQ 2.01.08-24 “Shovqindan himoya”;

SHNQ 2.01.09-24 “Qazilma ishlari olib borilgan va cho‘kuvchan gruntli hududlarda bino va inshootlarni loyihalash”;

SHNQ 2.01.18-24 “Binolar va inshootlarni isitish, shamollatish va konditsiyalashtirish uchun energiya sarfi normalari”;

SHNQ 2.02.01-24 “Bino va inshootlarning zaminlari”;

SHNQ 2.03.01-24 “Beton va temir-beton konstruksiyalar”;

SHNQ 2.03.05-23 “Po‘lat konstruksiyalar. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.03.07-21 “Tosh va armaturalangan toshli konstruksiyalar”;

SHNQ 2.03.10-24 “Tomlar va tom qoplamalari”;

SHNQ 2.03.13-24 “Pollar”;

SHNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish”;

SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash”;

SHNQ 2.04.08-22 “Gaz ta’minoti. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.04.09-21 “Bino va inshootlarning yong‘in avtomatikasi tizimi. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.04.15-23 “Fotoelektrik stansiyalar (tizimlar)”;

SHNQ 2.04.16-23 “Quyosh suv isitish qurilmalari”;

SHNQ 2.04.17-24 “Turar joy obyektlari, jamoat binolari va inshootlarining elektr jihozlari”;

SHNQ 2.04.18-22 “Shaharlar va qishloqlarda aholi yashaydigan joylarni tashqi yoritish”;

SHNQ 2.04.20-22 “Turar joy obyektlari va jamoat binolarining muhandislik uskunalari uchun kommunikatsiya va dispetcherlash tizimlari. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.07.01-23 “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish”;

SHNQ 2.07.02-24 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish”;

SHNQ 2.07.05-19 “Yashil qurilish. Turar joy va jamoat binolari. Yashash muhitining barqarorligini baholash reyting tizimi”;

SHNQ 2.08.02-23 “Jamoat binolari va inshootlari”;

SHNQ 2.01.06-25 “Seysmik hududlarda baland binolarni loyihalash”;

SanQvaN 0339-16 “O‘zbekistonning aholi yashaydigan hududlarini rejalashtirish va qurishdagi sanitariya qoidalari va normalari”;

SanQvaN 0102-25 “Turar joy obyektlarini loyihalashtirish va qurishga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari”;

SanQvaN 0019-21 “Radiotexnik inshootlarni joylashtirish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan gigiyenik talablar”;

SanQvaN 0008-20 “Turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashash hududlarida va dam olish zonalarida ruxsat etilgan shovqin darajasining sanitariya qoidalari va me’yorlari”;

GOST 27751-2014 Qurilish konstruksiyalari va asoslarning ishonchliligi. Asosiy qoidalar *(rasmiy manba: Nadyojnost stroitelnix konstruksiy i osnovaniy. Osnovnie polojeniya);*

GOST 34058-2021 Bino va inshootlarning ichki muhandislik tarmoqlari. Maishiy konditsionerlash tarmoqlarining parlanish va kompressor-kondensator bloklarini montaj qilish va ishga tushirish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash. Ishlarni bajarish qoidalari va nazorati (*rasmiy manba: Injenernie seti zdaniy i soorujeniy vnutrenniye. Montaj i puskovaya naladka, texnicheskoye obslujivaniye i remont isparitelnix i kompressornokondensatornix blokov bitovix sistem konditsionirovaniya. Pravila i kontrol vipolneniya rabot*);

GOST 5746-2015 Yo‘lovchi tashuvchi liftlar. Asosiy ko‘rsatkichlari va o‘lchamlari (*rasmiy manba: Lifti passajirskiye. Osnovnie parametri i razmeri*);

GOST 28911-2015 Liftlar. Boshqarish qurilmalari, signalizatsiya va qo‘shimcha moslamalar (*rasmiy manba: Lifti. Ustroystva upravleniya, signalizatsii i dopolnitelnie prisposobleniya*);

GOST R 56926-2016 Turar joy binolari uchun turli xildagi deraza va balkon konstruksiyalari. Umumiy texnik talablar (*rasmiy manba: Konstruksii okonnie i balkonnie razlichnogo funksionalnogo naznacheniya dlya jilix zdaniy. Obshiye texnicheskiye usloviya*);

GOST 23166-2021 Deraza va balkon konstruksiyalari. Shaffof to‘suvchi. Umumiy texnik shartlar (*rasmiy manba: Konstruksii okonnie i balkonnie. Svetoprozrachnie ograjdayushiye. Obshiye texnicheskiye usloviya*);

GOST 30826-2014 Ko‘p qatlamli oynalar. Texnik shartlar (*rasmiy manba: Steklo mnogosloynoye. Texnicheskiye usloviya*);

GOST 31462-2011 Himoyalovchi deraza bloklari. Umumiy texnik talablar (*rasmiy manba: Bloki okonnie zashitnie. Obshiye texnicheskiye usloviya*);

GOST 33984.1-2023 Liftlar. Odamlarni yoki odamlar va yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan liftlar. Qurilmasi va o‘rnatilishiga qo‘yiladigan umumiy xavfsizlik talablari (*rasmiy manba: Lifti. Lifti dlya transportirovaniya lyudey ili lyudey i gruzov. Obshiye trebovaniya bezopasnosti k ustroystvu i ustanovke*);

GOST 34305-2017 Yo‘lovchilar liftlari. O‘t o‘chiruvchilar uchun liftlar (*rasmiy manba: Lifti passajirskiye. Lifti dlya pojarnix*).

2-bob. Atamalar va ta’riflar

2. Ushbu SHNQda quyidagi atama va ta’riflardan foydalanilgan:

turar joy obyektlari — odamlar yashashi uchun mo‘ljallangan binolar, doimiy yashash uchun uy-joylar (xonadonlar), shuningdek vaqtincha yashash uchun yotoqxonalar, mehmonxonalar, maktab-internatlar, qariyalar uylari;

joylashtirish vositalari — mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualar, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylari, sanatoriylar hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo‘yicha xizmatlar) ko‘rsatiladigan boshqa obyektlar, shuningdek joylashtirish vositasi sifatida tunash uchun jihozlangan yer usti transporti;

ko‘p kvartirali uy — ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasiga yoxud bunday uydagi umumiy foydalaniladigan joylarga mustaqil chiqish yo‘laklariga ega bo‘lgan ikki va undan ortiq kvartiralar majmuidir;

rekonstruksiya qilish — asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni (yuklamalarni, xonalarning rejalashtirilishini, binoning qurilish hajmini va umumiy maydonini, muhandislik jihatdan jihozlanishini) o‘zgartirish bilan bog‘liq qurilish ishlari va tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

ventilyatsiya kanali — binodagi xonalar ventilyatsiyasi uchun mo‘ljallangan, binoni balandligiga teng, gorizontal bo‘shliq;

veranda — binoning asosiy hajmiga yopishtirib qurilgan oynavand yozgi xona;

yerto‘la qavati — xonalar polini sathi tekislangan yer sathidan pastligi xona balandligining yarmidan ko‘p bo‘lgan qavat;

yozgi xona — yilning issiq (iliq) davrida, dam olish va xo‘jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan ochiq (yarimochiq) yoki oynavand isitilmaydigan xona;

lodjiya — uch tomondan devor bilan o‘ralgan, tashqi tomondan ochiq yoki oynavand, bino hajmiga ega botiq yozgi bino;

mansarda qavati (mansarda) — chordoq bo‘shlig‘ida joylashtiriladigan qavat;

stilobat — binoning pog‘onali yarim yerto‘lasining yuqori qismi yoki bir nechta binolarni bog‘laydigan umumiy yarim yerto‘la;

taxmonsimon oshxona — kvartiraning yashash yoki yordamchi xonalari bilan tutash joylashgan, elektr plita (elektr pechlari), idish-tovoq yuvgich hamda mexanik yoki tabiiy harakatlanuvchi havo so‘rgichlari bilan jihozlangan, ovqat tayyorlash hududi;

chordoq — tom qoplamasi va yuqori qavat yopmasi orasidagi bo‘shliq;

yarim yerto‘la (sokol) qavati — xonalar polining sathi, tekislangan yer sathidan pastligi xona balandligini yarmidan ko‘p bo‘lmagan qavat;

hovli — maishiy va xo‘jalik maqsadlarida foydalaniladigan, uyga tutashgan ochiq maydon.

3-bob. Umumiy qoidalar

3. Turar joy obyektlarini loyihalash va rekonstruksiya qilish ushbu SHNQ asosida amalga oshirilishi lozim.

4. Turar joy obyektlarini loyihalashda sanitariya-gigiyena, yong‘inga qarshi va funksional-tipologik talablar, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayotiy faoliyati sharoitlari, zilzilabardoshlik, mikroiqlim qulayligi, energiya tejamkorlik va energiya samaradorlikni ta’minlash talablari, zamonaviy muhandislik jihozlarini qo‘llash talablari kompleks holda hisobga olinishi kerak.

5. Turar joy obyektlarini aholi punktlari hududlarida joylashtirish, ular bilan boshqa bino va inshootlar orasidagi masofa, yer uchastkalarining o‘lchamlari SHNQ 2.01.02-04, SHNQ 2.07.01-23 va SanQvaN 0339-16larga muvofiq bo‘lishi kerak.

6. Binolarning qavatliligi, uzunligi va kompozitsion-tarhiy yechimlari ushbu SHNQ hamda SHNQ 2.01.02-04, QMQ 2.01.03-19lariga asosan aniqlanishi lozim.

7. Ko‘p kvartirali uylarning qavatlar soni, yashash va umumiy maydonlari, qurilish hajmini hisoblash ushbu SHNQning 1-ilovasida keltirilgan.

8. Qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni joylashtirish uchun ixtisoslashtirilgan ko‘p kvartirali hamda internat uylar SHNQ 2.07.02-24 ga muvofiq loyihalanishi lozim.

9. Turar joy obyektlarini loyihalashda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bino oldidagi hududda hamda binoga kirish guruhining xonalari, eshik oldi maydonchasi, vestibyul, zinapoyaga olib boruvchi yo‘lak, liftga kirish maydonchasida erkin harakatlanishlari uchun SHNQ 2.07.02-24ga muvofiq shart-sharoitlar ta’minlanishi lozim.

10. Turar joy obyektlarini loyihalashda quyidagi muhandislik jihozlari va tizimlarini o‘rnatish hisobga olinishi zarur:

ichimlik suvi, yong‘inga qarshi va issiq suv ta’minoti, oqova suvlarni oqizish tizimlari hamda tarnovlarni SHNQ 2.04.01-22 ga muvofiq;

isitish va ventilyatsiya, tutundan muhofaza qilish SHNQ 2.04.05-22 ga asosan;

muhandislik uskunalari uchun kommunikatsiya va dispetcherlash tizimlarini SHNQ 2.04.20-22 ga muvofiq;

elektr yoritish, kuch elektr uskunalari, telefonlashtirish, televizor antennalari va ovozli signalizatsiya, shuningdek yong‘in signalizatsiyasi va evakuatsiyani boshqarish tizimi, yong‘in bo‘linmalari va odamlarni qutqaruv vositalarini tashish uchun liftlar;

ko‘p kvartirali uylarning tomlarida eshittirishlarni birgalikda qabul qilish antennalarining ustunlari;

yomg‘ir suvlarini yig‘ish va ulardan maishiy ehtiyojlarda foydalanish tizimlari.

ko‘p qavatli turar joylarda oqova, yomg‘ir va texnik suvlardan yashil hududlarni sug‘orishda foydalanish tizimlari.

11. Barcha turdagi turar joy obyektlariga kiruvchi elektr kabellari uch fazali qilib loyihalanishi, bunda ular neytral va yerlanish o‘tkazgichning kesimi fazalar o‘tkazgichlarining kesimiga teng bo‘lishi lozim.

Turar joy obyektlariga kiruvchi magistral kabellar va fazalar orasidagi kuchlanish bir xil taqsimlanishi (220 ±10%) hamda ularga uzatilayotgan kuchlanish 380 V bo‘lishi (A-V-S-N va PE) lozim.

12. “Yashil” turar joy obyektlarini loyihalashni SHNQ 2.07.05-19ga muvofiq amalga oshirish lozim.

13. Turar joy obyektlarini tabiiy va sun’iy yoritish SHNQ 2.01.05-24 hamda SHNQ 2.01.04-18 talablariga muvofiq bajarilishi kerak.

14. Turar joy obyektlari uchun yo‘l qo‘yiladigan shovqin darajasi SHNQ 2.01.08-24 talablariga hamda ushbu SHNQning 8-ilovasidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

4-bob. Ko‘p kvartirali uylar

1-§. Asosiy talablar

15. Ko‘p kvartirali uylarning hajmiy-tarhiy yechimlari ushbu SHNQ talablari hamda ijtimoiy-demografik talablari asosida loyihalash topshirig‘i bilan belgilanishi kerak.

16. Ko‘p kvartirali uylarning kompozitsion-tarhiy (hajmiy-tarhiy) yechimlari energiya tejamkorlik va energiya samaradorlik tamoyillarini hisobga olishi, yashash uchun qulay sharoitlarni, ko‘kalamzorlashtirilgan yondosh maydonlar bilan bog‘liqlikni ta’minlashi lozim.

Ko‘p kvartirali uylarning hovli hududida havo aylanishi uchun imoratlar bo‘lmagan maydonlar, ikki yoqlama ochiq piyoda va avtomobil o‘tish yo‘laklarini loyihalashga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, hovlilar tranzit yo‘llardan ajratilgan bo‘lishi kerak.

17. Aholisi juda zich bo‘lgan shahar qurilishi uchun kam qavatli uy-joylarni o‘zaro bog‘liq turar joy guruhlari ko‘rinishida loyihalash, ushbu SHNQ hamda SHNQ 2.07.01-23 talablarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bunda, ochiq hovlilarning yuzasi 3 xonali kvartira uchun — 30 m^2, 6 xonali kvartiralar uchun — 60 m^2 dan kam bo‘lmasligi kerak.

18. Ko‘p kvartirali uylarning 1-qavatlardagi kvartiralardan tegishli yer uchastkalariga chiqish joylarini 20 — 50 m^2 bo‘lgan o‘lchamlarda loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

19. Transport harakati serqatnov bo‘lgan magistral hamda katta ko‘chalar bo‘ylab joylashtiriladigan turar joy obyektlarining yashash xonalari va yozgi xonalarini obodonlashtirilgan hovlilar tomonga qaratib loyihalash lozim.

20. Magistral va katta ko‘chalarning qatnov qismidan ko‘p kvartirali uylargacha bo‘lgan masofa, uylarning hududlaridagi bolalar o‘yin va sport maydonchalarini, piyodalar va avtomobil yo‘llari hamda ko‘kalamzorlashtiriladigan zonalarni SHNQ 2.07.01-23ga muvofiq loyihalash lozim.

21. Hovli maydonchalari yoritilgan, avtoturargohlardan to‘silgan bo‘lishi lozim.

22. Daraxtlarni elektr uzatish tarmoqlarining ustunlaridan hamda yerosti kommunikatsiyalaridan 2 metr uzoqlikdan o‘tkazish zarur.

23. Ko‘p kvartirali uylarning hovlisidagi sport va o‘yin maydonchalari qo‘shni hududning chegarasidan, shuningdek hududdagi yo‘llar va to‘xtash joylaridan kamida 3 metr masofada joylashtirilishi kerak.

24. Ko‘p kvartirali uylar hududidagi avtoturargohlar SHNQ 2.07.01-23 talablariga muvofiq loyihalanishi kerak.

Ko‘p kvartirali uylar tarkibidagi jamoat xonalariga tashrif buyuruvchilar uchun avtomobillarning to‘xtash joylari binoda yashovchilar uchun ajratilgan to‘xtash joyidan alohida joylashtirilgan bo‘lishi lozim.

25. Ko‘p kvartirali uylarning yerosti qavatida avtoturargohlar loyihalanganda, kvartiralarni zaharli gazlardan himoya qilish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi lozim:

avtoturargohning kirish (chiqish) joylarini yashash xonalarining derazalari tomonida joylashtirmaslik;

kirish joylari ustiga soyabonlar o‘rnatish.

26. Avtoturargohlarni loyihalashda avtomobillar turish joylarining kamida 5 foizi elektromobillar uchun, 2,5-3 foizi SHNQ 2.07.02-24ga muvofiq nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan bo‘lishi kerak.

27. Velosipedlarni saqlash joylarini quyidagi usullar bilan tashkil etishga yo‘l qo‘yiladi:

velosipedning ramasi va ikkala g‘ildiragi mahkamlab qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qurilmalar o‘rnatish;

to‘liq yopiq va qulflanadigan velosipedlar qutisi.

28. Kvartiralarning magistral ko‘chalar tomonidagi yashash xonalariga shovqindan himoyalovchi maxsus konstruksiyali derazalar loyihalanishi kerak.

29. Magistral ko‘chalarga qaratilgan ko‘p kvartirali uylarning fasadiga konditsionerlarning agregatlarini o‘rnatishda konstruktiv yechimlar hisobiga ularning tashqaridan ko‘rinmasligini ta’minlash lozim.

Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlari (split) ushbu SHNQning 9-ilovasiga muvofiq o‘rnatilishi lozim.

30. Ko‘p kvartirali uylarning yagona arxitekturaviy qiyofasini saqlab qolish uchun balkon va lodjiyalarni loyihaviy hajmlardan chiqmagan holda derazalar o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, derazalarning ochiladigan qismi kamida 0,7x1,5 m bo‘lishi kerak.

31. Ko‘p kvartirali uylarni magistral ko‘chalarning salbiy ta’siridan himoyalashni ekranlar, jalyuzilar, qalin o‘sadigan mahalliy sharoitlarga mos himoyalovchi o‘simliklar hisobiga amalga oshirish kerak.

32. Ko‘p kvartirali uylarning yuqori qavatida xodimlar soni 5 tadan oshmagan ofislarni joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, qavatning zinapoya katagiga o‘tishni tambur orqali loyihalashtirilishi lozim.

2-§. Kvartiralar

33. Ko‘p kvartirali uylarning kvartiralari quyidagi tarhiy elementlardan tarkib topgan bo‘lishi kerak:

yashash xonalari;

yordamchi xonalar (oshxona, dahliz, vannaxona, hojatxona (yoki birlashtirilgan sanuzel), xo‘jalik xonasi yoki devor ichiga qurilgan xo‘jalik shkaflari.

Yozgi xonalarni (ayvonlar) qurishga yo‘l qo‘yiladi.

34. Kvartiralarning minimal maydoni quyidagi 1-jadvalga muvofiq bo‘lishi lozim.

1-jadval

Kvartiralardagi xonalar soni	1	2	3	4	5	6
Kvartira maydoni*, m^2	28	48	64	80	96	114

* Kvartiralarning normalayotgan maydoni (yozgi xonalar va isitilmaydigan xo‘jalik xonalarisiz) yashash va yordamchi xonalarni o‘z ichiga oladi.

Izoh. Jadvalda keltirilgan raqamlar, shahar va qishloq joylardagi “ijtimoiy” kvartirali turar joylarning barcha turlariga taalluqlidir.

35. Kvartiralar yashash xonalarining maydonlari quyidagi o‘lchamlardan kam bo‘lmasligi kerak:

bir xonali kvartiralardagi xona — 14 $m^{2;}$

ikki va undan ortiq xonali kvartiralardagi umumiy xona (mehmonxona) — 16 m^2;

yotoqxonalar — 8 m^2 (ikki kishi uchun — 12 m^2);

oshxona — 6 m^2, ikki va undan ortiq xonali — 8 m^2;

dahliz, yo‘lak — 4 m^2;

sanitariya-xonasi (vannaxona va hojatxona) — 4.

Bir xonali kvartiralar uchun oshxonalar yoki taxmonsimon oshxonalarni kamida 5 m^2, shuningdek mansarda qavatidagi yotoqxonani esa 7 m^2 (kvartiradagi umumiy xonaning maydoni 16 m^2 dan kam bo‘lmagan holda) loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

I-iqlimiy qurilish zonasi sharoitida yotoqxona maydoni bir kishi uchun — 9 m^2, ikki kishi uchun esa 14 m^2 dan kam bo‘lmasligi kerak.

36. Kvartiralarning yashash va yordamchi xonalari o‘lchamlari jihozlar zaruriy to‘plami va ergonomika talablarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Yotoqxonaning eni 2,4 m dan, umumiy xonaning eni esa 3 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

Turar joy obyektlarida mahalliy isitish tizimidan foydalanilganda, isitish tizimi qurilmasi (kotyol) uchun maydon kamida 5 m^2 bo‘lishi hamda u alohida xonada joylashtirilishi lozim.

37. Yashash maydonining hisobiy ko‘rsatkichlari ta’minlanganlik darajasini, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni, qurilishni resurs bilan ta’minlanganligini hisobga olgan xolda, loyihalash topshirig‘i bilan belgilanadi, biroq bir kishi hisobiga 16 m^2 kam bo‘lmagan umumiy maydon hajmida, kreslo-aravachada harakatlanadigan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun esa uchun 23 m^2 dan kam bo‘lmasligi kerak.

38. Yashash xonalari va oshxonalarning balandligi poldan shiftgacha kamida 2,7 m bo‘lishi lozim.

Yordamchi xonalar balandligi kamida 2,4 m bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

39. Oshxonaning eni jihozlar bir tomonda joylashganda 1,7 m dan, ikki tomonida joylashganda esa 2,2 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

40. Dahlizning eni 1,4 m dan, kvartiraning yashash xonalariga olib boradigan ichki yo‘laklari — 1,1 m dan, yordamchi xonalarga olib boradigan yo‘laklar esa 0,9 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

41. Yozgi xonalar, qavatlardagi kvartiralarga yondosh hovlilar (terrasalar) loyihalash topshirig‘i bilan belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya chiqishlari bilan qo‘shilgan yozgi xonalar mazkur SHNQning 341-bandiga muvofiq loyihalanishi kerak.

42. Kvartiralarning sanitariya-gigiyena xonalari ushbu SHNQning 248-bandi bo‘yicha sanitariya-gigiyena jihozlari bilan jihozlanganlik talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi lozim.

43. Hojatxonalar qo‘l yuvish anjomlari bilan loyihalanishi, ularning eni 1,6 m dan, birlashtirilgan sanuzellarning eni esa 2,2 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

44. Birlashtirilgan sanuzellar bir xonali kvartiralarda, shuningdek qo‘l yuvish anjomli hojatxonalar loyihalanganda yoki yotoqxonalar ichkarisiga hojatxonalar birlashtirilgan kvartiralarda qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

45. Kir yuvish mashinalari uchun vannaxona yoki birlashtirilgan sanuzellarda, 0,45x0,75 m hisobida joy loyihalanishi lozim.

46. O‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxslar yotoqxonasidan tashqari, oshxona va yashash xonalaridan hojatxonalarga bevosita kirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

47. Kvartiralarda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

yashash xonalari va oshxonalar ustiga hojatxonalar va hammomlarni joylashtirishga (ikki qavatli kvartiralar bundan mustasno).

jihozlar va quvuro‘tkazgichlarni bevosita kvartiralarni ajratadigan devorlarga, yashash xonalarining pardevorlariga o‘rnatishga.

48. Sanuzellarda havo aylanishi uchun u yerdagi eshikning pastki qismida panjara yoki balandligi 3 mm ochiq joy loyihalanishi kerak.

3-§. Xo‘jalik xonalari

49. Ko‘p kvartirali uylarning birinchi yoki yarim yerto‘la (sokol) qavatida tozalash anjomlarini saqlash uchun qo‘l yuvgich o‘rnatilgan xo‘jalik xonalari, shuningdek binoda yashovchilar uchun (texnik qavat bundan mustasno) alohida xo‘jalik xonalarini loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

50. Xo‘jalik xonalarini loyihalashda qavatdan chiqish joylari yong‘in xavfsizligi hamda ushbu SHNQning 92-93-bandlari talablarini hisobga olish lozim.

4-§. Noturar joy qavatlariga qo‘yiladigan talablar

51. Yangi quriladigan ko‘p kvartirali uylarning pastki qavatlarida savdo-maishiy xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan xonalar, ofislarni joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

52. Jamoat xonalari joylashgan qavatning balandligi SHNQ 2.08.02-23 ga muvofiq bo‘lishi lozim.

Jamoat xonalarini loyihalashda, uyning yashash muhitini buzishi mumkin bo‘lgan yomon ta’sirlardan himoya choralari ushbu SHNQga muvofiq ta’minlanishi kerak.

53. Ko‘p kvartirali uylarning ichki tutashtirib qurilgan xonalarini, shuningdek yerto‘lalarni loyihalash, rekonstruksiya qilish va foydalanishda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 648-son qarori bilan tasdiqlangan Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablari inobatga olinishi lozim.

54. Ko‘p kvartirali uylarda hamda uning tomi va konstruksiyalarida jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan binoga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallanmagan, o‘zidan zararli moddalar ajratuvchi, shovqin va vibratsiya hosil qiluvchi, yomon ta’sir ko‘rsatuvchi nurlanish manbai bo‘lgan va SanQvaN 0019-21 talablariga muvofiq bo‘lmagan qurilmalarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi (ushbu SHNQga muvofiq bunday binolarda joylashtiriladigan shtatli uskuna bundan mustasno).

55. Yashashga mo‘ljallangan xonalar, texnik qavatlar va chordoqlarda ko‘chma yoki radioaloqa baza stansiyalari hamda boshqa radiouzatuvchi qurilmalarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

56. Yashashga mo‘ljallanmagan jamoat va xizmat ko‘rsatish xonalarida SHNQ 2.04.09-21 va SHNQ 2.08.02-23 talablariga muvofiq yong‘in signalizatsiyasi hamda yong‘in avtomatikasi tizimlari bo‘lishi kerak.

57. Sintetik buyumlar (gullar, gilamlar) do‘konlari ko‘p kvartirali uylarning olovbardoshlik chegarasi REI 150 bo‘lgan yaxlit devorlariga tutashgan xonalarda joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

58. Loyihalanayotgan 5 va undan ortiq qavatli uylarning ichki tutashgan xonalarida kam sig‘imli (1-2 guruh) maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan tashqariga alohida chiqish yo‘li loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

59. Ko‘p kvartirali uylarni rekonstruksiya qilishda uyning birinchi qavatida kichik savdo-maishiy xona, ofislar ushbu SHNQ talablariga rioya qilgan holda loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

60. Mavjud ko‘p kvartirali uylarning texnik yerto‘lalari, yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarida maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

61. Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarda joylashgan xonalarning devor va shiftlari yuza qoplamasi uchun yonmaydigan materiallar qo‘llanilishi lozim (hojatxonalar, gigiyena kabinalari, dush xonalar, basseynlar, quruq hammomlar, suv bilan davolovchi xonalar bundan mustasno).

62. Ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la qavatlarida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

yerto‘lada yashash xonalari maqsadida loyihalashtirishga;

balandligi 2,2 metrdan past bo‘lgan yerto‘lalarni foydalanishga berilishiga;

63. Yangi qurilayotgan ko‘p kvartirali uylarning yarim yerto‘la (sokol) qavatlarida quyidagi shartlar bajarilgan hollarda yashash xonalarini joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi:

yerosti suvlari yer sathidan 3 m va undan pastda bo‘lgan hududlarda;

yarim yerto‘la (sokol) qavatining kamida 1/3 qismi yer sathidan yuqorida loyihalashtirilganda;

yarim yerto‘la (sokol) qavati xonalarining poldan shiftgacha bo‘lgan balandligi 2,7 m dan kam bo‘lmaganda;

yarim yerto‘la (sokol) dan o‘tuvchi gorizontal muhandislik tizimlar (tarmoqlar) yashash xonalarini inobatga olgan holda joylashtirilganda;

yarim yerto‘la xonalarining tashqi devorlari va pollarining issiqlik himoyasi hamda suvdan himoyalash (gidroizolyatsiya) ta’minlanganda;

yarim yerto‘lalarda (sokol) umumiy foydalanishdagi alohida texnik xonalar loyihalashtirilganda;

yarim yerto‘la (sokol) turar joy qismidagi yuvinish va hojatxona joylashuvi loyiha hujjatlarida tepa qavatlar bilan bir xil bo‘lganda;

yarim yerto‘la (sokol) turar joy qismidan umumiy foydalanishdagi oqova suvlarni oqizish tarmoqlarini orayopma qismidan gorizontal ravishda o‘tkazilmagan va muhandislik tarmoqlarini devor ichiga joylashtirilmagan holda.

SanQvaN 0102-25 talablari bajarilganda;

yashash xonalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqariga chiquvchi derazalar o‘rnatilganda;

tabiiy yorug‘lik va insolyatsiya darajasining 22-fevraldan 22-oktabrgacha bo‘lgan davrda 2 h dan (soat) kam bo‘lmagan darajasi ta’minlanganda;

havoning yaxshi aylanishi (mexanik ventilyatsiyasi) ta’minlanganda;

yarim yerto‘la (sokol) qavatidagi oshxona va sanitariya xonalari kanalizatsiya tizimi binoning umumiy kanalizatsiya tizimi sathidan yuqori joylashganda hamda qaytaruvchi klapan bilan jihozlanganda;

taom tayyorlash uchun elektr plitalardan foydalanilganda;

tabiiy va suyultirilgan gazlarda, yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklarda hamda portlab yonish xavfiga ega bo‘lgan boshqa moddalar va materiallarda ishlaydigan qurilma va asbob-uskunalar bo‘lmaganda.

64. Ko‘p kvartirali uylarning yarim yerto‘la (sokol) qavatida kvartiralar joylashtirilganda quyidagi evakuatsiya talablari ta’minlanishi lozim:

kirish eshiklari tashqi tomonga ochilishi hamda yong‘in xavfi vujudga kelganda odamlarni evakuatsiya qilish uchun kamida ikkita to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqariga chiquvchi joylar bo‘lishi;

xonadonlar faqatgina yo‘lak turida loyihalashtirilishi hamda kvartiradan evakuatsiya chiqish joyiga bittadan ko‘p bo‘lmagan burilish orqali yetib borilishini ta’minlanishi;

xonadonning chiqish eshigidan eng uzoqda joylashgan evakuatsiya chiqish joyigacha bo‘lgan masofa 12 metrdan oshmasligi;

binoning yuqori qavatlari bilan yarim yerto‘la (sokol) qavatlari zina kataklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmasligi;

har bir xonadondan o‘lchamlari 0,8 x 1,2 m dan kam bo‘lmagan avariya chiqish joylari bilan ta’minlanishi;

avariya chiqish joylari odamlarni qutqarishga to‘sqinlik qiluvchi vositalar bilan to‘silmasligi (metall panjara va boshqa turdagi to‘siqlar).

65. Yarim yerto‘la (sokol) qavatida joylashgan kvartiralarning foydali va yashash maydonlari loyihalarda 0,5 koeffitsiyent bilan hisobga olinadi.

66. Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan jamoat xonalari kvartiralarning xonalaridan 1-turdagi yong‘inga qarshi pardevorlar va 3-turdagi bo‘shliqlarsiz ora yopma bilan, I darajali olovbardoshlikka ega binolarda 2-tur ora yopma bilan ajratilishi kerak.

67. Jamoat xonalarini (yashovchilarga mo‘ljallangan maxsus jamoat xonalari bundan mustasno) binoning turar joy qismidan ajratilgan alohida kirish va chiqishlari bo‘lishi kerak.

68. Umumiy maydoni 300 m^2 dan katta bo‘lmagan va ishchilar soni 15 tagacha bo‘lgan birinchi va yarim yerto‘la (sokol) qavatda joylashgan jamoat xonalaridan bitta evakuatsiya chiqish joyi bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

69. Ichki va ichki tutashtirib qurilgan xizmat ko‘rsatish korxonalariga kvartiralarga kirish tomondan yuk tushirishga yo‘l quyilmaydi.

70. Yuk tushirish uchun binoning derazalari bo‘lmagan yon tomonida alohida joy belgilanishi kerak.

71. Ichki va ichki tutashtirib qurilgan savdo maydoni 200 m^2 dan ortiq bo‘lgan savdo markazlari, do‘konlar uchun tunnel orqali yerosti yuk tushirish joyi ajratilishi lozim.

72. Ichki qurilgan, maydoni 150 m^2 gacha bo‘lgan jamoat xonalariga yuk tushirish joyi loyihalanmaslikka yo‘l qo‘yiladi.

73. Yerto‘la qavatida joylashgan va muhandislik jihozlarini joylashtirish va kommunikatsiyalarni o‘tkazishga mo‘ljallangan xonalar boshqa xonalardan yong‘inga qarshi pardevorlar bilan ajratilishi kerak.

74. Texnik yerto‘laning har bir pardevor va ichki devorida, yong‘inga qarshi to‘siqlardan tashqari shift ostida har birining yuzasi 0,02 m^2 dan kam bo‘lmagan tuynuklar bo‘lishi lozim.

75. Ichki va ichki tutashtirib qurilgan jamoat xonalarining binoning yashash qismidan o‘tadigan muhandislik tarmoqlari yoki yashash qismining ichki qurilgan xonalaridan o‘tadigan kommunikatsiyalar (suv va isitish metall trubalar bundan mustasno) yong‘inga qarshi pardevorlar bilan to‘silgan alohida shaxtalardan o‘tkazilishi kerak.

76. Texnik yerto‘lalarning pol sathidan ora yopma ostigacha bo‘lgan balandligi — 1,8 m dan, mahalliy (xususiy) issiqlik punktlarining balandligi esa 2,2 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

77. Chordoqlar, texnik chordoqlarning bino uzunligi bo‘ylab oxirigacha balandligi 1,6 m dan, eni 1,2 m dan kam bo‘lmagan ikki tomoni ochiq bo‘lgan o‘tish yo‘lagi loyihalanishi kerak.

78. Uzunligi 2 m dan oshmaydigan alohida hududlarda o‘tish yo‘lagining balandligini 1,2 m, enini 0,9 m gacha kamaytirishga yo‘l qo‘yiladi.

79. Texnik yerto‘la, yarim yerto‘la (sokol) va yerto‘la qavatlarida binoning uzunligi bo‘ylab oxirigacha balandligi 1,8 m dan kam bo‘lmagan ikki tomoni ochiq o‘tish joyi loyihalanishi kerak.

Uzunligi 1 m dan oshmagan ayrim hududlarda o‘tish balandligini 1,6 m gacha kamaytirishga yo‘l qo‘yiladi.

80. Yirik panelli binolarning yerto‘la va texnik yerto‘lasidagi ko‘ndalang devorlarda balandligi 1,6 m bo‘lgan tuynuklar loyihalashga yo‘l qo‘yiladi, bunda ostonaning balandligi 0,3 m dan oshmasligi lozim.

81. Ventilyatsiyasi mavjud bo‘lmagan yerto‘la va texnik yerto‘lalarning tashqi devorlarida umumiy yuzasi pol yuzasining 1/400 dan kam bo‘lmagan, bino perimetri bo‘yicha tashqi devorlarda bir xil balandlikda joylashgan havo aylanishi uchun teshiklar qoldirilishi kerak.

Bitta teshikning yuzasi 0,05 m_2 dan kam bo‘lmasligi lozim.

82. Seksiyali bo‘lmagan ko‘p kvartirali uylarda texnik, yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlar va chordoqlar 1-tur yong‘inga qarshi pardevorlar bilan, yuzasi 500 m_2 dan oshmagan bo‘lmalarga, seksiyali binolarda esa seksiyalarga ajratilishi kerak.

83. Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarining har bir bo‘lma yoki seksiyasida o‘lchamlari 0,9x1,2 m bo‘lgan, kamida ikkita deraza (lyuk) bo‘lishi lozim.

84. Har bir zinapoya katagidan chordoqqa chiqish joyi hamda uning har bir seksiyasidan tomga chiqish joyi bo‘lishi lozim.

85. Texnik qavat va chordoqlarda yong‘inga qarshi pardevorlardagi eshiklar zich yopiladigan hamda yonmaydigan materialdan ishlangan bo‘lishi kerak.

86. Binoning o‘rta qismida joylashgan texnik qavat va texnik chordoqlardan SHNQ 2.01.02-04ga muvofiq ikkita chiqish joyi loyihalanishi kerak.

Mazkur qavatlarga umumiy zinapoya kataklari orqali kirishga yo‘l qo‘yiladi.

87. Olovbardoshlik darajasi II bo‘lgan 5 qavatli (5-qavat ham kiradi) binolarning hamda olovbardoshlik darajasi III va IV bo‘lgan binolarning yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatidagi xo‘jalik xonasi orasidagi pardevorlarning olovbardoshlik va olov tarqalishining normalanmaydigan chegaralarida loyihalashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

88. Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatda texnik yo‘lakni boshqa qolgan xonalardan ajratib turadigan pardevorlar I tur olovbardoshlik darajasiga ega bo‘lishi kerak.

89. Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlaridan chiqishni SHNQ 2.01.02-04ga muvofiq loyihalash kerak.

Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlardan chiqishlar evakuatsiya uchun mo‘ljallangan bo‘lganda, u bevosita tashqariga chiqishi kerak.

Birinchi qavatdagi turar joy qismini chiqish joyidan 1-turdagi yong‘inga qarshi pardevor bilan ajratilishi, tashqariga alohida chiqish yo‘lagi bo‘lganda esa turar joy qismining zinapoya katagidan chiqish joyi bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

90. Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarda, yonuvchan gaz va suyuqliklar (suv rezervuarlari) hamda yengil alangalanuvchi materiallar qo‘llanadigan yoki saqlanadigan xonalarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

91. Yangi qurilayotgan ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarida binoda yashaydiganlar uchun xo‘jalik xonalari ushbu SHNQ hamda SHNQ 2.08.02-23ga muvofiq loyihalashtirilishi, bunda uyning muhandislik kommunikatsiyalariga xizmat ko‘rsatish qulay bo‘lishi zarur.

92. Ko‘p kvartirali uyning yong‘in xavfsizligi va sanitariya-gigiyena holatlarining (ifloslantirish, hidlar, shovqin) yomonlashuviga olib keladigan xonalarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bunda, xonalarga turar joyga kiradigan tomonidan kirish joylarni tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kirish va chiqishlar ushbu SHNQning 89-bandiga muvofiq bo‘lishi kerak.

93. Yangi qurilayotgan binolarning yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarida ushbu SHNQ, SHNQ 2.01.02-04ga muvofiq avtoturargohlarni loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

94. Avtoturargohlar joylashgan qavat yuqorigi qavatdan 1-turdagi yong‘inga qarshi orayopma bilan ajratilishi, bunda binodagi yashash xonalari va ichki qurilgan bolalar va davolash-sog‘lomlashtirish xonalari avtoturargohlarning bevosita ustida joylashmasligi kerak.

95. Ichki qurilgan avtoturargohlarning balandligi 2,7 m kam bo‘lmasligi lozim.

96. Ko‘p kvartirali uylarda kvartiralarning xonalaridan ichki tutashtirib qurilgan xonalarga qaratilgan derazalar bo‘lganda, ichki tutashtirilgan qism tomi yuqori joylashgan yashash xonalarining polidan yuqori bo‘lmasligi, tomning asosiy binosidan 3 m dan ortiq masofaga chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

97. Ichki tutashtirilgan qismning tom konstruksiyalari mazkur SHNQning 163-bandi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

5-bob. Yotoqxonalar

98. O‘quvchilar, talabalar, doktorantlarni vaqtincha yashashi uchun yotoqxonalar quyidagi 2-jadvaldagi ko‘rsatkichlarga muvofiq loyihalanishi lozim.

99. Yashash xonalari ushbu SHNQning 2-jadvalida keltirilgan maydon ko‘rsatkichlari bilan 3 kishigacha yashashi hisobidan loyihalanishi lozim.

100. Xonalar biridan biriga o‘tilmaydigan bo‘lishi va eni 2,2 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

101. Bir kishilik xonaning yuzasi 8 m^2 dan, Ia va Ig iqlimiy qurilish zonalarida — 9 m^2 dan kam bo‘lmasligi zarur.

102. Bitta bolali ota-onalarning vaqtincha yashashi uchun mo‘ljallangan xonaning yuzasi 20 m^2 dan kam bo‘lmasligi lozim.

103. Yashash xonalarining yordamchi xonalari (dahliz, dushli hojatxona, oshxona yoki taxmonsimon oshxona) yashash guruhiga jamlanishi kerak.

104. Sanitariya-gigiyena jihozlari mazkur SHNQning 248-bandini hisobga olgan holda loyihalanishi kerak.

105. Uch va undan ortiq kishiga mo‘ljallangan yashash guruhlarida yuz-qo‘l yuvgichli hojatxona va dush, 2 kishilik yashash guruhlarida birlashtirilgan sanuzel loyihalanishi lozim.

106. Qavatda umumiy sanuzel bo‘lgan holda, ayollar sanuzelida bide, unitaz, qo‘l yuvgich bilan jihozlangan bo‘lishi hamda yuzasi 3 m^2 bo‘lgan shaxsiy gigiyena xonasi ajratilishi kerak.

2-jadval

Yotoqxonalar turi	**Binolar sig‘imi, o‘rin**	**1 yashovchiga yashash maydoni, m^2/kishi**	**Sig‘imi, o‘rin**	
			xonada	**yashash guruhida***
I — professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun	100 — 600	6-7 (Ia va Ig iqlim zonalarida — 8)	2-3	4 — 12 (20 gacha mumkin)
IIa — oliy ta’lim tashkiloti talabalari uchun	100 — 1000	4,5 — 6 (Ia va Ig iqlim zonalarida — 9)	2 — 6 (4 — 8)	4 — 8 (10 — 12 gacha mumkin)
IIb — oliy ta’lim tashkiloti doktorantlari, ishchi va xizmatchilar uchun	100 — 1000	7 — 8 (Ia va Ig iqlim zonalarida — 9)	1-2 (3)	2 — 6 (8 — 10 gacha mumkin)

* Yashash guruhi — yashash xonalari va yordamchi xonalar (dahliz, hojatxona, oshxonalar)ni o‘z ichiga oladi.

Izoh. Yotoqxonalar va yashash guruhlari sig‘imi loyihalash topshirig‘ida mahalliy sharoitlarga ko‘ra belgilanadi.

Oqova suvlarni oqizish tizimi bo‘lmagan hududlarda yotoqxonalar sig‘imi 50 o‘rindan oshmasligi kerak.

107. Barcha turdagi yotoqxonalarning birinchi qavatida loyihalash topshirig‘i bo‘yicha o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yashash guruhlari ajratilishi lozim.

O‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxs uchun yashash xonasi 14 m^2 dan, 2 kishiga — 18 m^2 dan kam bo‘lmasligi kerak.

108. Barcha turdagi yotoqxonalarning (I turi bundan mustasno) yashash guruhlarida maydoni kamida 5 m^2, yashovchilar soni 7 va undan ortiq bo‘lsa — 1 kishiga 0,9 m^2 hisobidan oshxona va taxmonsimon oshxonalar loyihalanishi lozim.

Yashovchilar soni 25 tagacha bo‘lganda umumiy oshxona bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

109. O‘quv binosining oshxonasida ovqatlanish tashkil qilingan professional ta’lim tashkilotlari talabalariga mo‘ljallangan yotoqxonalarda oshxona o‘rniga yashash guruhiga 5 m^2 yuzaga ega bo‘lgan taxmonsimon oshxona loyihalanishi kerak.

110. Professional ta’lim tashkilotlari talabalari uchun I-tur yotoqxonalarda 50 kishilik yashash guruhlarining xonalarni quyidagi tarkibda loyihalash lozim:

tarbiyachi xonasi — 8 m^2;

dam olish xonasi — 30 m^2;

o‘quv mashg‘ulotlari xonasi — 30 m^2;

kiyim yuvish, quritish va dazmollash xonasi — 8 m^2;

taxmonsimon oshxona — 5 m^2.

Xonalarning jami maydoni 1 kishiga 1,6 m^2 hisobidan qabul qilinishi kerak.

Loyihalash topshirig‘i bo‘yicha ish kiyimi va poyabzalini saqlash uchun qo‘shimcha 8 — 10 m^2 maydonga ega xona loyihalanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Har bir yashash guruhi uchun ikkita evakuatsiya chiqishi ko‘zda tutilishi kerak. Sanitariya uzellari va dush xonalarini birinchi qavatda joylashtirish lozim.

111. Yolg‘iz kishilar uchun yotoqxonalarda yozgi xonalar har bir qavatda (taxminan 1 yashovchiga 1 m^2 hisobidan) joylashtirilishi kerak.

112. Kichik oilalar uchun yotoqxonalarda yozgi xonalar yashash guruhlari tarkibida 1 yashovchiga 2 m^2 hisobidan, biroq 5 m^2 dan kam bo‘lmagan holda loyihalanishi kerak.

113. Jamoat, dam olish xonalari, o‘quv mashg‘ulotlari va ommaviy tadbirlar uchun tibbiyot punkti, izolyatorlar binoning yer ustki qavatlarida joylashishi kerak.

Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlarda SHNQ 2.08.02-23 ga muvofiq kir saqlash, sport anjomlari, omborlar, ta’mirlash ustaxonalari, xo‘jalik va texnik hamda jamoat xonalarini joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

114. Yotoqxonalardagi madaniy-maishiy, xo‘jalik va yordamchi xonalar tarkibi va maydonlari ushbu SHNQning 3-jadvali bo‘yicha solishtirma hisobiy ko‘rsatkichlarni (1 kishiga m^2) va 2-ilovasidagi ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda loyihalash topshirig‘iga ko‘ra belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi.

3-jadval

Turar joy turi	**Maydon, 1 kishiga m^2,**				
	50	100	200	300 — 500	600 — 800
Yotoqxona:					
o‘quvchilar uchun	2,6	2,5	2,5	2,5	2,5
talabalar uchun	2,5	2,4	2,4	2,4	2,4
aspirantlar uchun	2,6	2,5	2,5	2,5	2,3
ishchi va xizmatchilar	2,3	2,2	2,2	2,0	1,8
kichik oilalar yotoqxonasi	1,5	1,3	1,2	1,1	-

Izohlar:

1. Oliy ta’lim va professional ta’lim tashkilotlari yotoqxonalarining jamoat xonalari maydonining tarkibida yashash guruhining jamoat xonalari va butun binodagi jamoat xonalarining maydoni hisobga olingan.

2. Bolali oilalar vaqtincha yashaydigan yotoqxonalarda va vestibyulda aravachalarni saqlash va bolalarni qisqa muddat bo‘lishlari uchun xona (sanitariya xonalari bilan kamida 15 m^2) loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

6-bob. Qariya va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylariga qo‘yiladigan talablar

115. Internat uylarning sig‘imini loyihalash topshirig‘i bo‘yicha aniqlashga yo‘l qo‘yiladi.

116. Yangi quriladigan internat uylarning yashash va jamoat xonalarining poldan shiftgacha bo‘lgan minimal balandligi 2,7 m dan, asosiy yo‘laklarning balandligi 2,6 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

117. Ikki va undan ortiq qavatli internat uylarda GOST 5746-2015ga muvofiq liftlar loyihalanishi lozim.

118. Internat uylardagi har xil maqsadlar uchun mo‘ljallangan xonalarning tabiiy va sun’iy yoritish talablari SHNQ 2.01.05-24ga muvofiq bo‘lishi kerak.

119. Internat uylarning sig‘imi, xonalar maydoni taxminan 50 dan 200 — 300 o‘rinli (ijtimoiy-iqtisodiy asoslash bo‘yicha) qilib belgilashga yo‘l qo‘yiladi.

120. Yashash xonalarini 1 va 2 o‘rinli qilib loyihalash lozim, bunda:

bir o‘rinli — 10 m^2, o‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxs uchun — 14 m^2;

ikki o‘rinli — 16 m^2, o‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxs uchun — 18 m^2.

121. Yashash xonalari yashash guruhlariga (dahliz va sanuzellari bilan) birlashtiriladi. Yashash guruhining sig‘imi 2 — 4 o‘rin hisobidan qabul qilinishi lozim.

122. Doimiy parvarishga muhtoj shaxslarning yashash xonalarini davolash muassasalari kasalxona va statsionlarlar palatalarining normalari bo‘yicha loyihalash lozim.

123. Yashash guruhlari tarkibida dush va sanuzel, 10 — 15 yashovchiga mo‘ljallangan yashash guruhiga umumiy dush va vanna xonalari ajratilishiga yo‘l qo‘yiladi.

124. Internat uylarida quyidagi xonalar loyihalanishi kerak:

yashash guruhi yoki bo‘limlarining umumiy maishiy xonalari;

butun bino hisobidan xizmat ko‘rsatish xonalari, oshxona (ovqatlanish bloki bilan), madaniy-maishiy, tibbiy, xizmatchilar uchun xonalar, xo‘jalik va mehnat bilan davolash xonalari.

125. Jamoat xonalari maydonlari loyihalash topshirig‘i bo‘yicha 1 yashovchiga 9-10 m^2 hisobidan ushbu SHNQning 3-ilovasini hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.

126. Boshi berk yo‘lakka chiquvchi xonalarning umumiy sig‘imi 30 kishidan oshmasligi kerak.

127. Internat uylarning hajmiy-tarhiy yechimlarini SHNQ 2.01.02-04 bo‘yicha evakuatsiya yo‘llariga bo‘lgan talablarni hamda quyidagilarni hisobga olgan holda loyihalash lozim:

evakuatsiya yo‘llarida aylanadigan eshiklar va turniketlar, aylanma (vintovaya) zinapoyalar bo‘lmasligi;

evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklar ostonasiz bo‘lishi hamda pollarida baland-pastliklar bo‘lmasligi;

ostonalar bo‘lishi zarur bo‘lgan holda ularning balandligi va sathlar farqi 0,014 m dan oshmasligi;

zinapoyalar va panduslarning ikki tomoni bo‘ylab, shuningdek sathlarda farq bo‘lgan joylarda SHNQ 2.07.02-24 bo‘yicha tutqichli to‘siqlar o‘rnatilishi.

7-bob. Qariyalar va o‘rindiqli aravachada harakatlanadigan nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud oilalar uchun ixtisoslashtirilgan kvartiralarga qo‘yiladigan talablar

128. Ixtisoslashtirilgan kvartiralar turi, xonalar maydoni va tarkibi loyihalash topshirig‘i asosida belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu kvartiralar xonalarining taxminiy tarkibi va maydoni mazkur SHNQning 4-ilovasida keltirilgan.

129. Kirish maydonchalari tepasiga soyabon o‘rnatilishi hamda yomg‘ir-qor suvlari ketadigan bo‘lishi kerak.

Agar kirish eshigi tashqariga ochiladigan bo‘lsa, maydonchaning o‘lchamlari kamida — 1,4×2,0 m yoki 1,5×1,85 m, pandusli maydonchaning o‘lchamlari esa kamida 2,2×2,2 m bo‘lishi kerak.

130. Ixtisoslashtirilgan kvartiralardagi umumiy xonalarning maydoni quyidagilardan kam bo‘lmasligi lozim:

bir xonali kvartirada — 16 m^2 dan ;

ikki xonali kvartirada — 16 m^2 dan;

o‘rindiqli aravachada harakatlanadigan nogironligi bo‘lgan shaxs yashaydigan kvartirada 18 m^2 dan.

131. Kvartiralardagi yotoqxonalar maydoni quyidagi ko‘rsatkichlardan kam bo‘lmasligi lozim:

bitta qariyaga — 10 m^2 dan;

bitta nogironligi bo‘lgan shaxs uchun — 14 m^2 dan;

ikki qariya er-xotinga — 16 m^2 dan;

o‘rindiqli aravachada harakatlanadigan nogironligi bo‘lgan er-xotinga — 18 m^2 dan.

132. Oshxona maydoni 8 m^2 dan, eni 1,8 m dan kam bo‘lmasligi, ixtisoslashtirilgan kvartira oshxonasining eni 2,2 m dan kam bo‘lmasligi, oshxona yuzasi o‘rtasida aravacha manyovri uchun 1,4x1,4 m joy (zona) ajratilishi lozim.

133. Kvartiralarda xonalarning eni quyidagi ko‘rsatkichlardan kam bo‘lmasligi kerak:

dahliz — 1,8 m dan;

ichki yo‘laklar — 1,35 m dan;

eshiklarning eni — 0,9 m dan;

yozgi xonalar — 1,6 m dan.

Yozgi xonalarning yuzasi 8 m^2 dan kam bo‘lmasligi lozim.

Ixtisoslashtirilgan kvartiralar dahlizida o‘rindiqli aravacha saqlanadigan joy 0,9x1,5 m bo‘lishi kerak.

134. Kvartiralarning sanitariya-texnik jihozlari ushbu SHNQning 248-bandiga muvofiq o‘rnatilishi lozim.

135. Nogironligi bo‘lgan shaxsning yotoqxonasidagi sanuzel o‘lchamlari kamida 2,2x2,2 m loyihalanishi hamda ular uchun maxsus mo‘ljallangan jihozlar o‘rnatilishi lozim.

Sanuzelga kirish yotoqxona va ichki yo‘lakdan (yoki dahlizdan) loyihalanishi kerak.

136. Ixtisoslashtirilgan kvartirali uylarda jamoat xizmat ko‘rsatish xonalari loyihalash topshirig‘i bo‘yicha 1 yashovchiga 1,5-2,5 m^2 hisobidan qabul qilinadi.

Xizmat ko‘rsatish xonalarining taxminiy tarkibi ushbu SHNQning 5-ilovasida keltirilgan.

137. Ixtisoslashtirilgan kvartirali uylarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning uyda yoki jamoat bo‘lib ishlashi uchun ustaxonalar loyihalash topshirig‘i bo‘yicha loyihalanishiga yo‘l qo‘yiladi.

8-bob. Binolarning ishonchliligi va barqarorligini ta’minlash

1-§. Konstruktiv yechimlarga qo‘yiladigan talablar

138. Turar joy obyektlarining asoslari va yuk ko‘taruvchi konstruksiyalari GOST 27751-2014, SHNQ 2.03.07-21, SHNQ 2.03.01-24 va SHNQ 2.03.05-23 ga, tomlari SHNQ 2.03.10-24ga, pollar 2.03.13-24 ga muvofiq loyihalanishi kerak.

139. Binoning asoslari hamda yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini loyihalashtirishda ulardan foydalanish davrida quyidagi holatlar kelib chiqmasligini ta’minlash lozim:

binodan foydalanishni to‘xtatishga sabab bo‘ladigan konstruksiyalarning buzilishi yoki shikastlanishi;

deformatsiyalar yoki yoriqlar paydo bo‘lishi tufayli konstruksiyalar yoki binolarning foydalanish xususiyatlarining yomonlashishi.

140. Turar joy obyektlarining konstruksiyalari va asoslari quyidagi yuklar ta’siriga hisoblangan bo‘lishi kerak:

yuk ko‘taruvchi va to‘suvchi konstruksiyalarning o‘z og‘irligidan tushadigan doimiy kuchlarga;

yopmalarga tushadigan vaqtinchalik teng taqsimlangan yuklarga;

qurilish hududi uchun qisqa muddatli qor, shamol va harorat yuklariga.

141. Konstruksiyalarning yuk ko‘tarish qobiliyatini va ruxsat etilgan deformatsiyalanishini hisoblash usullari SHNQ 2.01.07-21, SHNQ 2.02.01-24 va SHNQ 2.03.01-24 talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

142. Murakkab geologik sharoitlarda qo‘shimcha ravishda, seysmik hududlar uchun QMQ 2.01.03-19, ishlov berilgan va cho‘kuvchan gruntlar uchun esa SHNQ 2.01.09-24 talablarini hisobga olish zarur.

142[1]. MSK-64 shkalasi bo‘yicha 8 va undan yuqori ballik seysmik faol zonalarda qurilishi rejalashtirilayotgan 9 qavatdan yuqori turar joy obyektlarini SHNQ 2.01.06-25 ga muvofiq aktiv seysmik himoyalash qurilmalari (dempfer uskunalari) bilan loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

143. Cho‘kuvchan gruntli hududlarda joylashgan turar joy obyektlarida avariya holatlarida asosiy magistral trassalardan binoga kiruvchi sovuq va issiq suv quvuro‘tkazgichlaridan oqib chiqqan suvlar bino poydevoriga sizib kirmasligini ta’minlovchi konstruktiv chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim.

144. Turar joy obyektlarida avariya holatlari yuzaga kelganda binoning qurilish konstruksiyalari GOST 27751-2014 talablariga muvofiq ishonchlilik va chidamlilik bo‘yicha ko‘rsatkichlarni saqlab qolishi kerak.

145. Binoning kirish joyidagi xona polining sathi kirish oldidagi trotuar sathidan kamida 0,15 m baland bo‘lishi, bunda binoga pog‘onasiz tekis kirish ta’minlanishi kerak.

146. Rekonstruksiya paytida barcha konstruksiyalarni hisoblash va gruntlarning haqiqiy yuk ko‘tarish qobiliyatini tekshirish barcha turdagi yuklar uchun (qo‘shimcha yuklarni hisobga olgan holda) amalga oshirilishi lozim.

Bunda, asos gruntlardan foydalanish davrida o‘zgarishi natijasidagi haqiqiy yuk ko‘tarish qobiliyatini, shuningdek vaqt o‘tishi bilan beton va temir-beton konstruksiyalarda betonning mustahkamligini oshishini hisobga olish kerak.

147. Turar joy obyektlarining tomlaridan oqiziladigan suvlarni bino yotqizmasiga tushmasligini ta’minlovchi choralar ko‘rilishi lozim.

2-§. Yong‘in xavfsizligi

148. Turar joy obyektlarini loyihalashda ushbu SHNQ va SHNQ 2.01.02-04 talablarini, shuningdek funksional yong‘in xavfi bo‘yicha binolarning quyidagi tasniflarini hisobga olish kerak:

F1.1 — o‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylar;

F1.2 — yotoqxonalar;

F1.3 — ko‘p kvartirali uylar, shuningdek qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ko‘p kvartirali uylar;

F1.4 — bir kvartirali uylar.

149. Ko‘p kvartirali uylarning yo‘l qo‘yiladigan balandligi hamda yong‘in xavfsizligi devorlari orasidagi yong‘in bo‘linmasi chegarasida joylashgan qavat maydonining yuzasi olovbardoshlik darajasi va konstruktiv yong‘in xavfiga bog‘liq holda mazkur SHNQning 4-jadvaliga muvofiq qabul qilinishi kerak.

150. Turar joy obyektlariga yong‘in-qutqaruv texnikalarining o‘tish yo‘llari SHNQ 2.07.01-23ga muvofiq loyihalanishi lozim.

151. Qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud bo‘lgan oilalar uchun ixtisoslashtirilgan ko‘p kvartirali hamda internat uylarining olovbardoshlik darajasi II dan past bo‘lmasligi kerak.

152. Yotoqxona binolarida yong‘inga qarshi devorlar oralig‘idagi qavatning yuzasi va binoning eng yuqori balandligi, olovbardoshlik darajasi va konstruktiv yong‘in xavfliligi sinfiga ko‘ra seksiya turidagi uylardagi yotoqxonalar uchun ushbu SHNQning 4-jadvali bo‘yicha, yo‘lakli turdagi yotoqxona binolari uchun esa 5-jadval bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

153. IV va V olovbardoshlik darajasiga ega yotoqxona binolarining yong‘in bo‘linmalarini 2-turdagi yong‘inga qarshi devor bilan ajratishga ikkitadan ortiq yong‘in bo‘linmalari to‘sib qo‘yilgan xolda yo‘l qo‘yiladi.

4-jadval

Binoning o‘tga chidamlilik darajasi	**Binoning konstruktiv yong‘in xavflilik sinfi**	**Binoning yo‘l qo‘yilgan eng katta balandligi, m**	**Qavatning yong‘in bo‘lmasi (otseki)ning yo‘l qo‘yilgan eng katta yuzasi, m^2**
I, II	CO	50	2500
II	SI	28	2200
III	CO	22	1800
	CI	16	1600
IV	CO	5	1000
		3	1400
	CI	5	800
		3	1200
	C2	5	500
		3	900
V	normalanmaydi	5	500
		3	800

Izohlar:

1. Binoga biriktirib qurilgan isitilmaydigan qismining olovga bardoshlilik darajasi, binoning isitiladigan qismining olovbardoshlik darajasi bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

2. Shamolning oylik o‘rtacha tezligi 4 m/s va undan yuqori hududlarda, jadval ko‘rsatkichlari 0,7 koeffitsiyent bilan qabul qilinadi.

5-jadval

Binoning o‘tga chidamlilik darajasi	**Binoning konstruktiv yong‘in xavflilik sinfi**	**Binoning yo‘l qo‘yilgan eng katta balandligi, m**	**Qavatning yo‘l qo‘yilgan eng katta yuzasi, m^2**
I, II	CO	28	2500
	SI	16	1000
III	CO	15	1000
	CI	9	1200

IV, V	normalanmaydi	3	400

154. Olovbardoshlik darajasi I, II va III bo‘lgan galereya turidagi binolarning galereyalari (uzun ayvon, yo‘lak) konstruksiyalarining R belgisi bo‘yicha olovbardoshlik chegarasi binoning qavat yopmalari uchun qabul qilingan qiymatlarga mos bo‘lishi va yong‘in xavfi sinfi KO bo‘lishi kerak.

155. IV olovbardoshlik darajasidagi binolarda galereyalar konstruksiyalari kamida R 15 olovbardoshlik chegarasiga va KO yong‘in xavfi sinfiga ega bo‘lishi kerak.

156. Olovbardoshlik darajasi IV bo‘lgan ikki qavatli binolar yuk ko‘taruvchi elementlari kamida R 30 olovbardoshlik chegarasida bo‘lishi lozim.

157. Zich joylashgan kam qavatli qurilishlarda (1, 2 qavatli uylar) yashash bloklari oralig‘i SHNQ 2.07.01-23 bo‘yicha qabul qilinishi, bunda yong‘inga qarshi devorlar oralig‘idagi yuza 600 m^2 dan oshmasligi kerak.

6-jadval

To‘siq konstruksiyasi	**Bino uchun konstruksiyalarning minimal olovbardoshlik chegaralari va ruxsat etilgan yong‘in xavfsizlik sinfi**		
	I-III, S0 va S1	IV, IIIa, C0 va C1	IV, IVa, IIIb C2, S3
Seksiyalar o‘rtasidagi devor	REI 45, K0	REI 45, K0	REI 45, K1
Seksiyalar o‘rtasidagi pardevor	EI 45, K0	EI 45, K0	EI 30, K1
Kvartiralar o‘rtasidagi devor	REI 30, K0*	REI 15, K0*	REI 15, K1
Kvartiralar o‘rtasidagi pardevor	EI 30, K0*	EI 15, K0*	EI 15, K1
Kvartiradan tashqaridagi yo‘laklarni boshqa xonalardan ajratuvchi devor	REI 45, K0*	REI 15, K0*	REI 15, K1**
Kvartiradan tashqaridagi yo‘laklarni boshqa xonalardan ajratuvchi pardevor	EI 45, K0*	EI 15, K0*	EI 15, K1**

* S1 sinfli binolar uchun — K1; ** S2 sinfli binolar uchun — K2.

158. Olovbardoshlik darajasi I, II va III bo‘lgan binolar ustiga ushbu SHNQning 4-jadvalida belgilangan binoning balandligidan qat’i nazar, R 45 dan kam bo‘lmagan olovbardoshlik chegarasiga va KO yong‘in xavfi sinfiga ega yuk ko‘taruvchi elementlari bo‘lgan bitta mansarda qavatini qurishga yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu qavatning tashqi devorlari, ustiga qurilayotgan quyi qavat konstruksiyalariga qo‘yiladigan talablarga mos kelishi lozim.

159. Binolarda 150 m oraliqda transport o‘tadigan eni 3,5 m dan, balandligi 4,25 m dan kam bo‘lmagan yo‘laklar loyihalanishi, zinapoya kataklarida o‘tish yo‘laklari har 100 m masofada joylashgan bo‘lishi kerak.

160. Binoning ikki qarama-qarshi fasad tomonida yong‘in o‘chirish gidrantlari o‘rnatilganda, zinapoya kataklarida o‘tish yo‘laklarini joylashtirmaslik mumkin.

161. Uch va undan ortiq qavatli binolarda lodjiya va balkonlarni to‘sish (oynavand konstruksiyalar bundan mustasno) yonmaydigan materiallardan loyihalanishi kerak.

162. Besh va undan ortiq qavatli, olovbardoshlik darajasi I, II va III bo‘lgan binolarda tashqi quyoshdan himoyalash qurilmalari yonmaydigan materiallardan loyihalanishi, bunda ushbu qurilmalarning elementlari o‘t o‘chiruvchilar va qutqaruvchilarni kvartiraga kirishi va undan yashovchilarni evakuatsiya qilish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

163. Binoning ichiga tutashtirib qurilgan qismi tomining yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarining olovbardoshlik chegarasi R 45 dan kam bo‘lmasligi va yong‘in xavfi sinfi KO bo‘lishi kerak.

Ko‘p kvartirali uylarda binoning ichiga tutashtirilgan qismiga qaratilgan derazalar bo‘lganda, tutashgan joyda tom sathi, asosiy binoning yuqori qavatlarida joylashgan yashash xonalari poli sathidan baland bo‘lmasligi, tom yopmasining issiqlik izolyatsiyasi yonmaydigan materialdan bo‘lishi kerak.

164. Chordoqli binolarda (olovbardoshlik darajasi V bo‘lgan o‘tga chidamli binolar bundan mustasno) tom qoplamasini ko‘taruvchi konstruksiyalar yonuvchi materiallardan bo‘lganda, tom qoplama yonmaydigan materialdan bo‘lishi hamda tom qoplamasini ko‘taruvchi konstruksiyalarga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik bilan ishlov berilishi kerak.

165. Jamoat xonalari yashash qismining xonalaridan bo‘shliqlarsiz 1-tur pardevor va 3-turdagi ora yopmasi bilan, olovbardoshlik darajasi I bo‘lgan binolarda 2-turdagi ora yopma bilan ajratilishi kerak.

166. Binoning stilobat qismini uning baland qismidan yong‘inga qarshi devorlar va orayopmalar bilan ajratish lozim.

Binoning stilobat qismidagi yong‘indan himoya bo‘lmasi chegarasidagi qavatning ruxsat etilgan eng katta maydoni, 3000 m^2 dan katta bo‘lmasligi kerak.

Quyidagi hollar bundan mustasno:

oqimli ventilyatsiya va tutunni yo‘qotish uskunalari loyihalanganda 10 000 m^2 gacha bo‘lganda;

avtomatik yong‘in o‘chirish tizimi 5000 m^2 gacha bo‘lganda.

3-§. Evakuatsiya yo‘llari

167. Qavatlardan chiqish joylari soni va zinapoya kataklari yong‘in xavfi bo‘yicha binolarning turlarini hisobga olgan holda SHNQ 2.01.02-04 ga muvofiq qabul qilinishi lozim.

168. Balandligi 28 m gacha ko‘p kvartirali uylarning har qavatda tashqi devorda derazasi L1 turdagi oddiy zinapoya kataklari loyihalanishi kerak.

169. L2 turdagi zinapoya kataklarini 3 qavatdan ko‘p bo‘lmagan, I va II olovbardoshlik darajasiga ega seksiya turidagi ko‘p kvartirali uylarda qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

170. L2 turdagi zinapoya kataklarini yoritish uchun tomdagi yuzasi 4 m^2 dan kam bo‘lmagan yorug‘lik tuynuklari loyihalanishi, bunda ikkinchi va uchinchi qavatdagi har bir kvartiralarda balkon yoki lodjiya, shuningdek zinapoya marshlarining orasida 0,7 m dan kam bo‘lmagan ochiq joy yoki zinapoya katagining balandligi bo‘yicha gorizontal kesim yuzasi 2 m^2 dan kam bo‘lmagan yorug‘lik shaxtasi bo‘lishi kerak.

171. L2 turdagi zinapoya kataklaridan binoning yondosh hududiga (tashqariga) bevosita chiqish loyihalanishi yoki yondosh yo‘laklaridan eshikli pardevorlar bilan ajratilgan vestibyullar orqali chiqish joyi bo‘lishi kerak.

172. Kvartiralar va yotoqxona eshiklaridan zinapoya katagigacha yoki tashqariga chiqish joyigacha bo‘lgan eng uzoq masofa quyidagi 7-jadval bo‘yicha qabul qilinishi kerak.

7-jadval

Olovbardoshlik darajasi	**Binoning konstruktiv yong‘in xavflilik sinfi**	**Kvartira yoki yotoqxona eshigidan chiqishgacha bo‘lgan eng olis masofa, m**	
		Zinapoya bo‘lmalari yoki tashqi kirishlar oralig‘ida joylashganda	**Boshi berk yo‘lak yoki galereyaga chiqishda**
I, II	CO	40	25
II	S1	30	20
III	CO C1	30 25	20 15
IV	CO C1, C2	25 20	15 10
V	normalanmaydi	20	10

173. Ko‘p kvartirali uyning seksiyasida kvartiradan derazasiz yo‘lakka (xoll) chiqishda, eng uzoq joylashgan kvartira eshigidan bevosita zinapoya katagiga yoki tutun qoplamaydigan zinapoya katagining havo bo‘shlig‘i zonasiga olib boruvchi tamburgacha bo‘lgan masofa 12 m dan oshmasligi kerak.

174. Yo‘lakda (xolda) deraza yoki tutun yo‘qotish klapanlari bo‘lsa, bu masofa ushbu SHNQning 8-jadvali bo‘yicha, boshi berk yo‘lak uchun kabi qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

175. 28 m va undan yuqori bo‘lgan binolarda eng olis kvartiraning eshigidan eng yaqin evakuatsiya chiqish joyigacha bo‘lgan masofa 12 m dan oshmasligi lozim.

176. Yo‘laklarning eni quyidagilardan kam bo‘lmasligi kerak:

zinapoyalar oralig‘i yoki yo‘lak oxiri bilan zinapoya oralig‘i 40 m gacha bo‘lganda — 1,4 m;

40 m dan uzun bo‘lganda — 1,6 m;

galereyaning eni — 1,2 m.

177. Yo‘laklarni bir-biridan va yo‘lak oxiridan 30 m gacha masofada joylashgan, olovbardoshligi YEI 30 bo‘lgan avtomatik yopish uskuna bilan jihozlangan eshik o‘rnatilgan pardevor yordamida ajratish kerak.

178. Pog‘onalar balandligi va kengligi har xil bo‘lgan zinalarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi. Bitta zinapoya marshida yoki sathlar farqida pog‘onalar soni 3 tadan kam, 18 tadan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

179. Zinapoya marshlari va uning maydonchalarida balandliklar farqi 45 cm dan ortiq bo‘lganda dastali to‘siqlar, ixtisoslashgan kvartirali uylarda, internat uylarda devorga yopishgan qo‘shimcha tutqichlar bo‘lishi kerak.

Zinapoya marshlarining maksimal qiyaligi va minimal kengligi quyidagi 8-jadvalga muvofiq qabul qilinishi kerak.

8-jadval

Zinapoya marshlari ishlatiladigan joylar	**Eng kichik kengligi, m**	**Eng katta qiyaligi**
Binolarning yashash qavatlariga olib boradigan zinapoyalar:		
seksiyali:		
ikki qavatli	1,05	1:1,5
uch va undan ko‘p qavatli	1,05	1:1,75
yo‘lakli	1,2	1:1,75
Yerto‘la va yarim yerto‘la (sokol) qavatlariga olib boruvchi hamda kvartira ichidagi zinapoyalar (marshlar)	0,9	1:1,25

Izohlar:

1. Zinapoya marshining eni, to‘siqlar orasidagi yoki devor va to‘siq orasidagi masofa bilan belgilanadi.

2. Kvartira ichidagi zinapoyalarni yog‘ochdan tayyorlash mumkin. Zinapoyalar aylanma yoki o‘rtasidagi kengligi 18 cm dan kam bo‘lmagan qochirin pog‘onali bo‘lishi mumkin.

3. Zinapoya maydonchasining kengligi zinapoya (marsh) kengligidan kam bo‘lmasligi, tabaqalari tashqariga ochiladigan liftlar oldida esa 1,6 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

4. Zinapoyalarning to‘g‘ri marshlaridagi oraliq maydonchalarning kengligi 1 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

5. Zinapoya katagiga chiqadigan eshiklar ochilgan holatida zinapoya maydonchasi va marshlarining hisobiy kengligini kamaytirmasligi kerak.

180. Zinapoya, pandus, maydoncha, terrasa, balkon, lodjiya, tom hamda sathlarida farq bo‘lgan (baland-past) joylarda to‘siqlar balandligi 1,2 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

181. Ixtisoslashtirilgan kvartiralari mavjud uylarda binoga kirish joyida, vestibyulda, lift yaqinida, yo‘laklarda zina pog‘onalari va ostonalar bo‘lmasligi kerak. Bunday binolarda eni 1,2 m dan kam bo‘lmagan, qiyaligi 1:20 dan ko‘p bo‘lmagan panduslar bo‘lishi lozim.

Kvartiradan tashqaridagi yo‘laklarning kengligi 1,8 m dan, eshiklarning eni 0,9 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

182. Mavjud binolarni rekonstruksiya qilishda pandusning enini 1,2 m o‘lchamda ta’minlash imkoni bo‘lmagan holda uning enini 0,9 m gacha kamaytirishga yo‘l qo‘yiladi. Ikki marshli pandusda bitta marshning qiyaligi 1:12 dan oshmasligi lozim.

Quyidagi hollarda pandusning qiyaligi 1:8 gacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi:

pandus mavjud binoga qurilayotgan bo‘lsa;

pandusning balandligi 1 m yoki undan past bo‘lib, obyektning konstruktiv xususiyatlariga ko‘ra 1:12 qiyalikni ta’minlash imkoni bo‘lmaganda.

Binoga kirishda panduslarni o‘rnatish imkoni bo‘lmaganda, o‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ko‘tarish moslamalari loyihalanishi kerak.

183. Balandligi 28 m gacha bo‘lgan binolarda L1 oddiy zinapoya kataklarida qo‘shimcha qavat elektr shitlari, isitish jihozlari, pochta qutilarini o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi, bunda zinapoyalar va maydonchalarning belgilangan enini kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Elektr shitlari, isitish jihozlari, pochta qutilari devor o‘yiqlariga o‘rnatilishi lozim.

184. Oddiy zinapoya kataklari hajmida qorovulxonadan boshqa xonalar bo‘lmasligi kerak.

Birinchi, yerto‘la, yarim yerto‘la (sokol) qavat zinapoyalari ostida isitish tarmog‘ini boshqarish, suv o‘lchash, elektr tokini kirish-taqsimlash qurilmalarini joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

185. Zinapoya kataklari hajmida (tutun qoplamaydigani bundan mustasno) birinchi qavatdan pastga tushmaydigan, olovbardoshlik chegarasi normalangan yonmaydigan materialdan tayyorlangan, to‘siq konstruksiyali lift shaxtalariga ega bo‘lgan ikkitagacha yo‘lovchi liftlarini joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

186. Yo‘lakli va galereya turidagi binolarda zina kataklari va liftga kirish (yuklash) maydonchalari har qanday xonalar va har bir qavatdagi yo‘laklardan tavaqalarida zichlagichli yopgichlar bilan jihozlangan eshiklar bilan ajratilishi kerak.

Oynavand eshiklar zarbaga chidamli oynalardan bo‘lishi lozim.

187. Balandligi 15 m dan kam, Ia, Ib va II iqlimiy qurilish zonalar uchun loyihalanayotgan turar joy obyektlarida zinapoya kataklari o‘rniga olovbardoshlik chegarasi R 60 dan kam bo‘lmagan yonmaydigan materiallardan bajarilgan, yog‘ingarchiliklardan himoyalangan tashqi ochiq zinapoyalarni qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

188. Maydoni 500 m^2 gacha bo‘lgan seksiya turidagi ko‘p kvartirali uylarning seksiya qavatidan L1 turdagi bitta oddiy zinapoya katagiga evakuatsiya chiqishini ko‘zda tutishga yo‘l qo‘yiladi.

15 m dan yuqorida joylashgan har bir kvartirada balkon yoki lodjiyaga chiqqan derazalar orasi kamida 1,6 m yoki balkon (lodjiya) chetidan derazagacha kamida 1,2 m li yopiq devori bo‘lgan balkon yoki ochiq (oynalanmagan) lodjiyaga avariya evakuatsiya chiqishi bo‘lishi kerak.

Qavatda to‘rtta kvartiradan ortiq seksiyalarda uch va undan ortiq xonali kvartiralarda eni 1,2 m dan kam bo‘lmagan balkon yoki lodjiyaga chiqadigan derazalar orasi 1,6 m dan kam bo‘lmagan yopiq devorli balkon yoki lodjiya bo‘lishi lozim.

189. Ikki qavatda (sathda) joylashgan kvartiralardan, kvartira xonalari 6 qavatdan yuqori joylashmagan va zinapoya katagiga bevosita chiqishi bo‘lmagan kvartira qavati ushbu SHNQning 188-bandiga muvofiq qo‘shimcha chiqish bilan ta’minlangan bo‘lsa, zinapoya katagiga har bir qavatdan chiqish bo‘lmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

190. Qavatdagi kvartiralarning umumiy maydoni 500 m^2 dan ortiq seksiyalarda evakuatsiya qilish kamida ikkita oddiy yoki tutun qoplamaydigan zinapoya katagiga chiqish orqali amalga oshirilishi kerak.

Qavatdagi kvartiralarning umumiy maydoni 500 m^2 dan 550 m^2 gacha bo‘lganda, kvartiralar oshxona va dahlizlarida manzilli yong‘indan xabar beruvchi yong‘in signalizatsiyasi tizimi o‘rnatilgan bo‘lsa va ushbu SHNQning 188-bandi talablari bajarilganda, kvartiradan oddiy zinapoya katagiga chiqish bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

191. Balandligi 28 m gacha, qavatdagi kvartiralar umumiy maydoni 500 m^2 va undan ko‘p bo‘lgan yo‘lakli (galereyali) turidagi ko‘p kvartirali uylarda, umumiy yo‘laklar (galereyalar) kamida 2 ta L1 turdagi oddiy zinapoya katagiga chiqish bo‘lishi kerak.

Umumiy maydoni 500 m^2 dan kam bo‘lganda, bitta oddiy L1 turdagi zinapoya katagiga chiqishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, yo‘laklarning (galereya) chekkalaridan 3-turdagi tashqi zinapoyalarga chiqish bo‘lishi kerak.

192. Oddiy zinapoya katagi binoning oxirida joylashganda, ushbu SHNQning talablari bajarilganda, yo‘lakning (galereya) qarama-qarshi tomonida (oxirida) bitta 3-tur zinapoya o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi.

193. Tashqaridan kiriladigan yotoqxona binolarida uzunligi 1,2 m dan kam bo‘lmagan, internat uylarida uzunligi 1,6 m, eni 2,2 m dan kam bo‘lmagan tamburlarni loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

194. Qavatdagi kvartiralar umumiy maydoni 500 m^2 gacha, balandligi 28 m dan yuqori seksiyali yoki seksiya-galereyali binolarda bitta tutun qoplamaydigan N1 turdagi zinapoya katagiga yoki u bilan tutashgan ochiq yo‘laklarga chiqish bo‘lishi, bunda 15 m dan yuqori joylashgan barcha kvartiralar uchun ushbu SHNQning 198-bandi talablariga muvofiq, balkon yoki ochiq lodjiyalarga evakuatsiya chiqish joylar bo‘lishi kerak.

195. Tutun qoplamaydigan zinapoya kataklarida birinchi qavatdan bevosita tashqariga chiqish bo‘lishi kerak.

N1 turidagi tutun qoplamaydigan zinapoya katagidan tashqariga chiqish, yondosh (tutash) yo‘laklarni 1-turdagi yong‘inga qarshi pardevorlar bilan ajratilgan (to‘silgan) vestibyul orqali bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bunda, zinapoya katagini vestibyul bilan o‘tilishi boshqa qavatlardagi kabi havo zonasi orqali bo‘lishi mumkin. Birinchi qavatdagi havo zonasi tuynugini metall panjara bilan to‘sishga yo‘l qo‘yiladi.

N1 turdagi zina katagiga liftga kirish maydonchalaridan o‘tishga yo‘l qo‘yiladi, bunda lift shaxtalari va undagi eshik qurilmalari SHNQ 2.01.02-04ga muvofiq loyihalanishi kerak.

196. Qavatdagi kvartiralar umumiy maydoni 500 m^2 dan ortiq bo‘lgan seksiya-galereyali turdagi binolarda evakuatsiya chiqish yo‘li SHNQ 2.01.02-04ga asosan kamida ikkita tutun qoplamaydigan zina katagi orqali bo‘lishi kerak.

Qavatdagi kvartiralarning umumiy maydoni 500 m^2 dan 550 m^2 gacha bo‘lganda, kvartiralar avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmasi bilan jihozlanganda hamda SHNQning 188 va 194-bandlari talablari bajarilganda evakuatsiya chiqish uchun bitta tutun qoplamaydigan N1 turdagi zina katigini loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

Binolarning balandligi 50 m gacha bo‘lgan kvartiralarning umumiy maydoni 500 m^2 gacha bo‘lgan binolarda, liftlardan biri yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari tashishga mo‘ljallanganida evakuatsiyani N2 yoki N3 zinakatagi orqali ta’minlanishi mumkin. Bunda N2 zinapoyasiga chiqish vestibyul (yoki lift xoli) orqali ta’minlanishi, zinapoyaning, lift shaxtalarining, tambur-shlyuz va tamburlarning eshiklari 2-turdagi yong‘inga qarshi bo‘lishi kerak.

197. Binolarning balandligi 50 m gacha bo‘lgan kvartiralarning umumiy maydoni 500 m^2 gacha bo‘lgan binolarda, liftlardan biri yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari tashishga mo‘ljallanganida evakuatsiyani N2 yoki N3 zina katagi orqali ta’minlanishi mumkin.

Bunda, N2 zinapoyasiga chiqish vestibyul (yoki lift xoli) orqali ta’minlanishi, zinapoya, lift shaxtalari va tamburlarda 2-turdagi yong‘inga qarshi eshiklar bo‘lishi kerak.

198. Tutun qoplamaydigan N1 turdagi zinapoya katagiga o‘tish joyining tutun bilan qoplanmasligi quyidagi hajmiy-tarhiy va konstruktiv yechimlar bilan ta’minlanishi lozim:

o‘tish joylari ochiq bo‘lib, binoning ichki burchaklarida joylashmasligi va eni kamida — 1,2 m,

to‘siq balandligi — 1,2 m;

tashqi havo zonasidagi eshiklar orasidagi devor kengligi kamida 1,2 m;

zinapoya katagi eshigi bilan eng yaqin deraza orasidagi devorning kengligi kamida — 2 m.

199. Balandligi 28 m gacha gazlashtirilgan turar joy obyektlarining oshxonalari va kvartira ichki yo‘laklari, balandligi 28 m dan 50 m gacha bo‘lgan obyektlarda esa barcha xonalar yong‘in signalizatsiyaning xabarlagichlari bilan jihozlanishi lozim.

Balandligi 50 m dan yuqori bo‘lgan turar joy obyektlari yong‘in signalizatsiyasi bilan birga yong‘inni avtomatik o‘chirish qurilmasi bilan jihozlanishi lozim.

Bunda, qurilmaning sprinkellari kvartiraning kirish eshiklarining yuqorisida va kvartira tashqarisidagi umumiy yo‘laklarda o‘rnatiladi.

200. 28 m dan baland binolarda yong‘in vaqtida lift shaxtasining yuqori qismiga alohida kanal orqali tashqi havo berishni ta’minlash kerak.

Bunda, lift shaxtasida ortiqcha bosim SHNQ 2.04.05-22ga asosan hisob-kitob bo‘yicha qabul qilinishi kerak.

201. Havo bosimi va tutunni haydash ventilyatsiyasi qurilmalari 1-turdagi yong‘inga qarshi pardevorlar bilan to‘silgan alohida ventilyatsiya kameralarida joylashtirilishi lozim.

Ventilyatorlarni kvartiralar dahlizlari, yotoqxona xonalari va madaniy-maishiy xizmat xonalarida o‘rnatilgan yong‘in signalizatsiyasi xabar bergichlaridan avtomat tarzda hamda har qavatdagi o‘t o‘chirish kran shkaflarida o‘rnatilgan tugmachalardan masofadan ulashni ko‘zda tutish kerak.

202. 28 m dan baland bo‘lgan binolarning yuqori qavatidagi oyna tirqishining pastiga SHNQ 2.01.02-04ga muvofiq qozonxonalarni tutashtirib qurishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tegishli yong‘in xavfsizligi choralari ta’minlangan holda qozonxonalarni tomga o‘rnatilishiga yo‘l qo‘yiladi.

203. Yiliga o‘rtacha 20 va undan ortiq soat davomida momaqaldiroqli yomg‘ir yog‘adigan joylarda 400 m radiusdagi qurilish maydonlaridan 25 m dan ortiq ko‘tarilib turgan hamda bir-biridan 400 m dan uzoqda alohida turgan 30 m dan baland binolar bevosita yashin urilishidan hamda yerusti metall konstruksiyalar orqali yuqori kuchlanishli toklardan himoya bilan jihozlanishi kerak.

4-§. Turar joy obyektlaridan foydalanishdagi xavfsizlik talablari

204. Ko‘p kvartirali uylarning balkoni, lodjiya hamda xonalaridagi panoramali oynalar to‘siqlarining (panjara) balandligini GOST R 56926-2016 bo‘yicha bo‘lishi lozim.

205. Binodagi deraza oynalarining pastki qismi pol sathidan 0,9 m dan past balandlikda joylashgan bo‘lsa, xavfsizlikni ta’minlash choralari GOST R 56926-2016ga muvofiq bo‘lishi kerak.

206. Derazalarga alyumin profilli panjara yoki polikarbonatdan bo‘lgan shaffof panjaralar, qulf-kalitli tutqichlar, deraza tokchasiga o‘rnatiladigan to‘xtatgichlar loyihalanishi kerak.

207. Ixtisoslashtirilgan kvartiralardagi kirish guruhi elementlarining to‘siqlari nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun tashqi zinapoyalar, maydonchalar va panduslarda 0,9 va 0,7 m, ichki zinapoyalar, maydonchalar va panduslarda 0,7 m balandlikda qo‘shimcha tutqichlar o‘rnatilishi kerak.

208. Yashash xonalari va oshxonalarda o‘rnatilgan panoramali oynalar bo‘lganda, qo‘shimcha to‘siqlarning (panjara) balkon va lodjiyalarga birikmagan joylardagi balandligi 1,2 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

209. Panoramali oynalar loyiha yechimlari GOST R 56926-2016, GOST 23166-2021 bo‘yicha xavfsiz ekspluatatsiya qilish va xavfsiz xizmat ko‘rsatishni ta’minlashi lozim.

210. Zinapoya kataklarining maydonchalarida sun’iy yoritkichlar (chiroqlar) o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

Chiroqlar zinapoya marshining o‘rtasi va maydonchalarida 11 lx dan kam bo‘lmagan yorug‘lik darajasini ta’minlay olishi lozim.

Agar zina pog‘onalari 6 va undan ortiq bo‘lsa, har bir qavat maydonchasi devorida chiroq o‘chirgich o‘rnatilishi kerak.

Sun’iy yoritish masofadan, markazlashgan yoki avtomatik boshqariladigan bo‘lsa, chiroq o‘chirgich o‘rnatish talab etilmaydi.

211. Qo‘shimcha himoya to‘siqlari bo‘lmagan holda oynalar uchun quyidagi himoya sinflari GOST 30826-2014 va zarbga bardoshlilik GOST 31462-2011 bo‘yicha belgilanishi zarur:

birinchi va yuqori qavatdagi xonalar uchun — SM4, R2A, PV2 (agar ichkariga buzib kirish xavfi bo‘lsa);

boshqa qavatlardagi xonalar uchun — SM4.

212. Loyiha yechimida panoramali oynada qo‘shimcha himoya to‘sig‘i bo‘lmasa, uning oldiga o‘rindiqli aravacha, mebel va jihozlar harakatlanishini cheklovchi elementlar o‘rnatilishi lozim.

Agar birinchi qavatlardagi o‘rnatilgan oynaning pastki qismi yer sathidan 0,15 mm dan kam balandlikda va yo‘lkalar fasadga taqalgan bo‘lsa, tashqi tomondan ham cheklovchi elementlar o‘rnatilishi kerak.

213. Ko‘p kvartirali uylarning konstruktiv yechimlarida (teshiklarning joylashishi, quvuro‘tkazgichlarning konstruksiyalardan teshib o‘tkazilgan joylarini germetizatsiya qilish usullari, ventilyatsiya tuynuklarini ochish va issiqlik izolyatsiyasini o‘rnatishda) kemiruvchilarni ichkariga kirishidan saqlash choralarini ko‘rish kerak.

214. Ko‘p kvartirali uylarda va uning atrofidagi hududda kriminal holatlar yuzaga kelishini kamaytirishga, binoda yashovchilarni himoya qilishga qaratilgan choralar ko‘rishga yo‘l qo‘yiladi.

215. Ko‘p kvartirali uylarning xavfsizlik tizimi ichki muhandislik tizimlariga va yong‘in xavfsizligi jihozlariga yog‘ingarchilik ta’siridan himoya qilish choralari ko‘rilishi kerak.

216. Texnik xodimlarni ko‘p kvartirali uylarda alohida xonada joylashtirish va ular uchun hojatxona ko‘zda tutilishiga yo‘l qo‘yiladi.

217. Turar joy obyektlarining xonalari unga yomg‘ir, qor-muz yoki yerosti suvlari va foydalanish jarayonida favqulodda vujudga kelgan suvlarni kirishidan konstruktiv vositalar (tadbirlar) hamda texnik moslamalar bilan himoyalanishi kerak.

218. Elektr shchitlari, kabel televideniyesining texnik markazi, telefon simlarini taqsimlash shkaflari turadigan xonalarni (joy) suv ishlatiladigan xonalarning tagiga joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi (birlashtirilgan sanuzellar, vanna (dush) xonalari, hojatxona).

219. Liftlarning xavfsizligi ulardan foydalanish davrining barcha bosqichlarida GOST 33984.1-2023 hamda GOST 34305-2017 talablariga javob berishi kerak.

220. Konditsionerlash tizimining alohida tashqi bloklarini o‘rnatishda GOST 34058-2021ga amal qilinishi va texnik xizmat ko‘rsatish hamda ta’mirlash zarurligini hisobga olgan holda ularni o‘rnatish joylari ta’minlanishi kerak.

221. Ventilyatsiya tizimlaridan chiqadigan havo, yo‘lovchilar yuradigan yo‘lkalar tomoniga qaratilmasligi kerak.

9-bob. Liftlar

222. Yuqori qavat polining sathi yer sathidan 13 m va undan ko‘p bo‘lgan turar joy obyektlarida lift qurilmalarini o‘rnatish lozim.

223. Loyiha topshirig‘iga muvofiq ikki qavatli turar joy obyektlariga ko‘tarish platformalari o‘rnatilishiga yo‘l qo‘yiladi.

224. Liftlar ko‘p kvartirali uy yoki yotoqxonalarga mazkur SHNQning 6-ilovasiga muvofiq o‘rnatilishi kerak.

225. Turar joy obyektlarida o‘rnatiladigan liftlar GOST 5746-2015, GOST 33984.1-2023 va GOST 28911-2015 da belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi lozim.

226. Lift shaxtalarini quyidagi 9-jadval bo‘yicha loyihalash lozim.

9-jadval

Yuk ko‘tarishi, kg	Kabinaning o‘lchamlari, mm	Shaxtaning o‘lchamlari, mm
450	950x1070	1700x1600
630	1100x1400	1850x1850
1000	1100x2100	2000x2600

227. Qariyalar va o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud oilalari uchun ixtisoslashtirilgan binolarda yuk ko‘tarish qobiliyati 630 kg bo‘lgan liftlar loyihalanishi kerak.

228. Balandligi 28 m dan yuqori bo‘lgan turar joy obyektlarida yo‘lovchi liftlarining biri yong‘in-qutqaruv bo‘limlarini tashishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

229. Lift maydonchalarining eni quyidagicha qabul qilinishi kerak:

400 kg li yuk ko‘taruvchi lift uchun — 1,5 m;

630 kg li lift uchun — 1,6 m;

1000 kg li lift uchun — 2,1 m.

230. Lift shaxtalari yashash xonalari bilan yonma-yon joylashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

231. Liftlarning mashina xonalarini yashash xonalarining bevosita ustida va yonida joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

232. Liftdan foydalanuvchilarning xavfsizligini, shuningdek avariya holatlarida foydalanuvchilar va qutqaruv xizmati o‘rtasida doimiy aloqani ta’minlash uchun lift shaxtalari aloqa vositalari (video-tasvir uzatish qurilmalari, lift uskunalarining texnik holatini monitoring qilish va avariya holatlarini real vaqt rejimida qayd etuvchi dispetcherlik bloki va boshqalar) bilan jihozlanishiga imkoniyat yaratilgan bo‘lishi lozim.

233. Turar joy obyektlarida liftlar o‘rnatilishida SHNQ 2.07.02-24da belgilangan talablarga rioya qilish zarur.

234. Liftning yon devorlarida 900 ±100 mm balandlikda tutqichlar o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

235. Ko‘p kvartirali uylarning chiqish eshiklari lift eshigi bilan qarama-qarshi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) holatda joylashmasligi, shuningdek lift eshiklari va yon devorlarning rangi bir-biridan ajralib turishi lozim.

236. Liftlarni ko‘tarish mexanizmlaridan chiqadigan shovqin eshitilmasligi uchun shaxtalar shovqin izolyatsiyasi bilan jihozlanishi lozim.

237. Liftning kabinasi, posangisi va muvozanatlovchi moslamalari bitta shaxta ichida joylashgan bo‘lishi kerak.

238. Lift shaxtasi binoning boshqa qismlaridan olovbardoshligi kamida ikki soat bo‘lgan devor bilan ajratilgan bo‘lishi lozim.

239. Lift shaxtasi qo‘zg‘almas (statsionar) elektr yoritkich o‘rnatilishi, bunda ta’mirlash ishlari davomida 1 m^2 uchun kamida 50 lx yorug‘lik ta’minlangan bo‘lishi zarur.

Agar tashqi yoritish shaxta ichida 1 m^2 uchun kamida 50 lx yorug‘likni ta’minlasa, oynavandlangan to‘r bilan o‘ralgan yoki qisman o‘ralgan lift shaxtalari qo‘zg‘almas (statsionar) elektr yoritish uskunalari bilan jihozlanishi talab etilmaydi.

10-bob. Muhandislik jihozlari

1-§. Asosiy qoidalar

240. Yashash xonalarida mikroiqlimning eng muvofiq va yo‘l qo‘yiladigan parametrlari (o‘lchamlari) va havo almashinuvi miqdorini mazkur SHNQning 10-jadvali bo‘yicha qabul qilish kerak.

241. Yilning sovuq davrida turli xonalardagi havoning hisobiy harorati va havo almashinuvi ko‘rsatkichlari ushbu SHNQning 11-jadvali bo‘yicha qabul qilinishi kerak.

242. Muhandislik ta’minoti tizimini qurishda ishlatiladigan uskuna, buyum va materiallar amaldagi standart talablariga javob berishi lozim.

10-jadval

Parametrlar (o‘lchamlar)	**Yil davri**	**Hisobiy harorat, °S**	**Nisbiy namlik, %**	**Havo harakati tezligi, ≤ m/s**	**Havo almashinuv miqdori**
Eng muvofiq	Sovuq	21-22 (22-23)	30-60	0,15	1 m^2 pol yuzasiga 4 m^3/h
	Iliq	26-27	30-45	0,2	-
Yo‘l qo‘yiladigan	Sovuq	20/21	65 gacha	0,2	1 m^2 pol yuzasiga 3 m^3/h
	Iliq	-	-	-	-

Izohlar:

1. Qavs ichidagi qiymatlar yolg‘iz qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxs mavjud oilalar uyiga tegishli.
2. Chiziqlar ushbu ko‘rsatkich me’yorlanmasligini bildiradi.
3. Bittadan ortiq tashqi devorli xonalar uchun sovuq davrdagi haroratni 1 °S ga yuqori olish kerak.

243. Muhandislik jihozlari tizimini yong‘in-portlash xavfsizligini, ko‘zdan kechirib turish, tozalash va ta’mirlash imkonini ta’minlagan holda, SHNQ 2.04.05-22, SHNQ 2.04.08-22, SHNQ 2.04.17-24, SHNQ 2.04.20-22 va SHNQ 2.04.18-22larga muvofiq loyihalash kerak.

Tizim ishlashidan hosil bo‘lgan shovqin turar joy binolari uchun yo‘l qo‘yilgan darajadan oshmasligi kerak.

244. Qo‘shimcha shovqin chiqaradigan uskunalar alohida mustaqil tayanch konstruksiyalarga o‘rnatilishi kerak.

245. Muhandislik tizimining elektromexanik va elektron uskunalari tabiiy yoritiladigan va favqulodda suv bosmaydigan xonalarda joylashishi kerak.

Ushbu uskunalarni texnik yerto‘lalarda joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

11-jadval

Xonalar	**Havoning hisobiy harorati, °S**	**Havo almashinuvi karraligi**	
		Ichkariga tortish	**Tashqariga tortish**
Kvartira yoki yotoqxonalardagi yashash xonasi	10-jadvalda keltirilgan		
Yotoqxonalardagi jamoat va ma’muriyat xonalari	20	-	1
Xonadan va yotoqxonalar oshxonasi elektr plitali	18	-	60 m^3/h
Vannaxona	25	-	25 m^3/h
Alohida hojatxona	8	-	25 m^3/h
Birlashgan sanuzel	25	-	50 m^3/h
Umumiy dushxona	25	-	5,0
Umumiy yuvinish xonasi	18	-	0,5
Kiyimni tozalash va dazmollash uchun garderob xonasi	18	-	1,5
Vestibyul, umumiy yo‘lak, zina katagi	16	-	-
Kir yuvish xonasi	15	Hisob bo‘yicha, lekin karraligi 4 dan kam emas	7,0
Yotoqxonalarda dazmollash, quritish xonasi	15	Hisob bo‘yicha, lekin karraligi 2 dan kam emas	3,0
Yotoqxonalarda shaxsiy buyum, sport inventari, xo‘jalikdagi kirlarni saqlash xonalari	14	-	0,5
O‘txona (kotelnaya)	16	-	3,0
Liftlarning mashina xonasi	10	-	Hisob bo‘yicha, biroq 0,5 dan kam emas

Izoh. 1a, 1b, 1v, va II iqlimiy zonalardagi binolarning zinapoya kataklarida hamda xususiy isitish tizimiga ega kvartirali uylarda havo harorati normalanmaydi.

246. Shovqin va tebranish manbalari bo‘lgan, nasosxonalar, ventkameralar, issiqlik punktlari yashash xonalari bilan yonma-yon, ustida yoki ostida joylashtirilmasligi kerak.

247. Ko‘p kvartirali uylarda ichki suv ta’minoti va oqova suvlarni oqizish tizimi bo‘lishi kerak.

Ichki oqovalashtirish tizimi mavjud bo‘lmaganda, binoga suv quvurlarini olib kirishga yo‘l qo‘yilmaydi, bunda tashqi suv kolonkalari, tashqaridagi hojatxonalar bo‘lishi kerak.

248. Ko‘p kvartirali uylarda quyidagi sanuzellar loyihalanishi lozim:

a) 5-6 xonali kvartiralarda:

vanna, yuz-qo‘l yuvgich va unitazli;

dush, yuz-qo‘l yuvgich, va unitazli;

b) 2 — 4 xonali kvartiralarda:

vanna, unitaz va yuz-qo‘l yuvgichli;

unitaz va yuz-qo‘l yuvgichli hojatxona;

v) bir xonali va kichik o‘lchamli ikki xonali kvartiralarda:

birlashtirilgan sanuzel (unitaz, yuz-qo‘l yuvgich, vanna);

qariyalar uchun ixtisoslashtirilgan uylarda sanitariya jihozlariga qo‘shimcha ravishda loyihalash topshirig‘i bo‘yicha oyoq vannasi loyihalanishiga yo‘l qo‘yiladi.

249. O‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxs mavjud oilaga mo‘ljallangan kvartiralardagi sanuzelda unitaz, yuz-qo‘l yuvgich va devorga mahkamlangan maxsus ko‘tarib-tushiriladigan o‘rindiqli dush hamda trap (ko‘chma zina) bo‘lishi kerak.

250. Oqova suvlarni oqizish tizimi bo‘lgan yotoqxonalardagi sanitariya-gigiyena xonalarining uskunalari quyidagi hisobdan qabul qilinishi kerak:

a) yolg‘iz yashovchilarga:

1 ta unitaz, 1 ta dush (yoki vanna), 1 ta yuz-qo‘l yuvgich 4 — 6 kishiga;

b) kichik oilaga:

1 ta unitaz, 1 ta dush (yoki vanna), 1 ta yuz-qo‘l yuvgich 2-3 kishiga.

251. O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylardagi yashash xonalari tarkibida (ichida) birlashgan sanuzellar (unitaz, yuz-qo‘l yuvgich, dush, oyoq vannasi) loyihalanishi lozim.

10 — 15 kishidan iborat guruh bo‘lgan holda vannali xona loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu obyektlarda elektr energiyasi, sovuq va issiq suv sarfini hisoblagichlar o‘rnatilishi lozim.

2-§. Oshxona muhandislik jihozlari

252. Seysmik faol hududlarda yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavflilik toifa III va IV bo‘lgan obyektlarda gaz va elektr tarmoqlarini kuchli zilzila paytida avtomatik bloklash tizimi o‘rnatilishi lozim.

253. Yotoqxonalarda, qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud oilalarning uylarida (qavatlar sonidan qat’iy nazar) oshxonalar, taxmonsimon oshxonalar taom tayyorlash uchun elektr uskunalari (plita, pishirish panellari, pishirish pechlari) bilan jihozlanishi lozim.

254. Kvartiraga qarashli uchastkadagi yozgi oshxonani plita va idish-tovoq yuvgich bilan jihozlashga yo‘l qo‘yiladi.

3-§. Sovuq va issiq suv ta’minoti

255. Oqova suvlarni oqizish tizimi bo‘lmagan hududlardagi aholini ularning uylaridan 100 m dan uzoq bo‘lmagan masofada joylashgan suv chiqarish uskunalari (kolonkalari) orqali ta’minlash lozim.

256. Oqova suvlarni oqizish tizimi bo‘lgan hududlardagi binolarda ichimlik va yong‘inga qarshi suv ta’minoti hamda markazlashgan issiqlik ta’minoti tizimidan yoki zavodda ishlangan mahalliy suv isitish jihozlari orqali issiq suv bilan ta’minlanishi kerak.

257. Balandligi 28 m va undan yuqori bo‘lgan turar joylarda, shuningdek qurilish hajmi 5000 m^3 va undan ortiq bo‘lgan yotoqxonalarda yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimi loyihalanishi kerak.

Yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimi binoning fasadiga chiqarilgan yong‘in o‘chirish avtonasoslarni ulash uchun diametri 80 mm bo‘lgan birlashtiruvchi tirsaklar, tashqaridan boshqariladigan teskari klapanlar va zulfinlar (zadvijkalar) bilan jihozlangan bo‘lishi lozim.

258. Xo‘jalik va maishiy ehtiyoji uchun beriladigan ichimlik suvi va issiq suv sifati O‘zMST 133-2024ga muvofiq bo‘lishi kerak.

Issiq suvni olish joyidagi haroratni 50 °C dan past va 75 °S ortiq bo‘lmagan holda ushlab turish kerak.

259. Issiq suv ta’minoti tizimida suvni uzatish uchun issiq va sovuq suv alohida kelib ulanadigan va ularni aralashtirib chiqaradigan joʻmrak oʻrnatish kerak.

260. Sanitar-texnik jihozlarga keladigan suv bosimi bir sekunddagi hisobiy sarfga yetadigan boʻlishi va 0,6 MRa dan oshmasligi lozim.

261. Qariyalar uchun vannalardagi va nogironligi boʻlgan shaxslar uchun sanuzellardagi smesitellarda 50 °S dan ortiq temperaturadagi issiq suv kelishining oldini oladigan termostatik regulator oʻrnatilgan boʻlishi lozim.

262. Suv ta’minoti tizimining har bir kvartiraning, xoʻjalik bloki, sauna, unitaz baki, suv isitgich kolonkalaridagi tarmoqlanadigan joylarida yopadigan armatura (zapornaya armatura) oʻrnatish kerak.

263. Ichki suv ta’minoti tizimida bino perimetrining har 60 — 70 metrida tashqi devordagi tuynuklarda bittadan oʻrnatiladigan sugʻorish joʻmragiga yoʻl qoʻyiladi.

Suv ma’lum vaqtlarda beriladigan hududlarda sugʻorish joʻmragi oʻrnatilmaydi.

264. Vanna va dushxonalarda yoz vaqtida oʻchirib qoʻyish imkonini beruvchi sxema boʻyicha sochiq quritgich oʻrnatilishi lozim.

265. Avtomat kir yuvish mashinasini sovuq va issiq suv hamda oqova quvurlariga ulash uchun ularda probkalar bilan yopib qoʻyiladigan shtutserlar oʻrnatilishi kerak.

266. Vanna va dush tagliklarning (poddon) metall korpuslari suv quvurlari bilan metall oʻtkazgichlar vositasida tutashtirilishi lozim.

4-§. Oqova suvlarni oqizish tizimi

267. Ichki maishiy oqova suvlarni oqizish tizimi oʻrnatilgan barcha sanitariya-texnik jihozlaridan (unitaz, vanna, dush, yuz-qoʻl yuvgich) chiqadigan oqova suvlarni ketkazish uchun moʻljallangan boʻlishi lozim.

268. Konstruksiyasida gidravlik yopqich boʻlmagan sanitariya-texnik jihozlarining (dush poddonlari, kir yuvish mashinalarining magʻzava chiqish joyi) ostidagi chiqish joyiga gidravlik yopqichlar oʻrnatilishi kerak.

269. Oqova suvlarni ketkazish oʻz oqimi bilan ketadigan yopiq quvuroʻtkazgichlar boʻyicha, ifloslanib tiqilib qolish ehtimolini maksimal kamaytiradigan qilib oʻrnatib, amalga oshirilishi kerak.

Qoʻshni kvartiralarda joylashgan sanitariya jihozlarini umumiy tarmoq quvuroʻtkazgichiga ulashga yoʻl qoʻyilmaydi.

270. Ichki oqova suvlarni oqizish tarmogʻini yashash xonalari, namlik boʻlishi mumkin boʻlmagan xonalar hamda oshxona va vestibyullar shiftining osti boʻylab, devor va pol ichi bilan oʻtkazishga yoʻl qoʻyilmaydi.

271. Uyning ichki oʻzi oqadigan oqova suvlarni oqizish tarmogʻining ventilyatsiyasini (qishloqdagi 1 qavatli uylar bundan mustasno) havo tortadigan qismi bino tomidan yuqoriga chiqarilgan uyning oqova suvlarini oqizish vertikal quvuri orqali amalga oshirish kerak.

Vertikal quvurlarning havo tortadigan qismini ochiladigan deraza va balkonlardan kamida 6 m masofada, tortuvchi ventilyatsiya bloklarining uchidan kamida 1 m masofada joylashtirish kerak.

272. Oqova suvlarni oqizish vertikal quvurlarini ventilyatsiya kanali va shaxtalari ichidan oʻtkazishga yoʻl qoʻyilmaydi.

273. Oqova suvlarni oqizish vertikal quvurlarini chordoq boʻshligʻida toʻxtatishga yoʻl qoʻyilmaydi.

274. Kvartiralardan chiqadigan oqova suvi doʻkonlar, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat koʻrsatish korxonalari oqova suvi bilan (bino tashqarisida joylashgan birinchi oqovalashtirish qudugʻigacha) birlashtirilmasligi kerak.

275. Kvartiralarda ichki oqova suvlarni oqizish tarmogʻini montaj shaxtalari, kanallar va koroblar ichiga berkitib oʻtkazish lozim.

5-§. Isitish

276. Turar joy obyektlarining yashash xonalaridagi havo harorati mazkur SHNQning 10-11-jadvallarida keltirilgan hisobiy koʻrsatkichlari isitish tizimlari orqali taʼminlanishi kerak.

277. Issiq suv isteʼmoli hajmining kamida 25 foizi ushbu obyektlarda oʻrnatiladigan quyosh suv isitish qurilmalari orqali qoplanishini taʼminlash lozim.

278. Turar joy obyektlarida bugʻli isitish tizimi va gaz bilan isitiladigan kaminlarni qoʻllashga yoʻl qoʻyilmaydi.

279. Suvli isitish tizimi qoʻllanilganda, quvurdan tayyorlangan isitish qismlarni qurilish konstruksiyalari (ora yopma, devor, pardevor) oʻrnatishga yoʻl qoʻyilmaydi.

280. Markazlashtirilgan isitish tizimiga ega boʻlgan koʻp qavatli uyning har bir isitish bloki issiqlik miqdorini oʻlchash uchun hisoblagich va isitish haroratini tartibga soluvchi moslama bilan jihozlangan boʻlishi kerak.

281. Isitish jihozlari yuzasidagi harorat 105 °S dan, qariya va nogironligi boʻlgan shaxslarning xonalarida esa 95 °S dan oshmasligi lozim.

282. Isitish jihozlari (radiator va konvektorlar) tashqi devorning ichki yuzasida deraza ostida ochiq holda joylashtirilishi lozim.

Mahalliy issiqlik manbaidan ishlaydigan isitish tizimida isitish jihozlarini ichki devorlarga oʻrnatishga yoʻl qoʻyiladi.

283. Isitish radiatorlari oʻrnatiladigan joylarga 0,5 kW tok kuchiga ega elektr kabellari olib kelinishi lozim. Ushbu kabellar yerdan oʻtkazilishi kerak.

284. Qattiq yonilgʻida ishlaydigan isitish qozonlarni har bir kvartirada oʻrnatish ikki qavatli turar joy obyektlarida loyihalanishi mumkin.

285. Yangi koʻp kvartirali uylar, yotoqxonalar hamda internat uylarni va markazlashgan isitish tizimlarini elektr energiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga moslashtirilgan holda loyihalashtirish va bunda binolarni isitish va sovutishning markazlashgan tizimiga muqobil energiya manbalaridan ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni (geleokollektor, issiqlik nasosi, quyosh panellari, issiqlikni qayta tiklash) qoʻllash samaradorligini oshirishni taʼminlash lozim.

286. Isitish uchun elektr energiyasi sarfi SHNQ 2.01.18-24da belgilangan talablar doirasida boʻlishi kerak.

6-§. Ventilyatsiya va havoni konditsionerlash

287. Kvartiralarda hisoblangan havo parametrlari va havo almashinuvi chastotasi ushbu SHNQning 10 va 11-jadvallariga muvofiq boʻlishi kerak.

288. Ventilyatsiya orqali xonalardagi mikroiqlimning normativ koʻrsatkichlari taʼminlanmagan holda, loyihalash topshirigʻiga koʻra havoni konditsionerlash tizimi qoʻllanilishiga yoʻl qoʻyiladi.

289. Tutunga qarshi shamollatish tizimlarini SHNQ 2.01.02-04 va SHNQ 2.04.05-22 larga muvofiq loyihalash kerak.

290. Loyihalashda tashqaridan toza havo oqimining yashash xonalariga kirishini va u yerdan yordamchi xonalarga oʻtishini taʼminlash lozim.

291. Kvartira va yotoqxona yashash xonalarining ventilyatsiyasini oshxona, hojatxona, oʻtxona (kotelnaya), vanna va dushxonalardagi vertikal havoni soʻruvchi kanallardan foydalangan holda amalga oshirish kerak.

292. Har bir kvartira doirasida quyidagilarga yoʻl qoʻyiladi:

oshxona va oʻtxonadan alohida-alohida kanallar chiqarilishi;

hojatxona, vanna, dush va gigiyena xonalaridan tortuvni gorizontal havo oʻtkazgichlar orqali bitta kanalga birlashtirish.

293. Havoni soʻruvchi vertikal kanallarni bino tomidan tashqariga chiqquncha yoki ochiq chordoq boʻshligʻigacha tranzit qilib chiqarish kerak.

294. Besh qavatgacha bo‘lgan (5-qavat ham kiradi) ko‘p kvartirali uylarda sanuzel va oshxonalardan havoni tortib oluvchi kanallarni har bir qavat uchun mustaqil alohida o‘tkazilishi lozim.

295. Olti va undan ko‘p qavatli ko‘p kvartirali uylarda qavatlardagi bir turdagi xonalardan havoni tortib oluvchi kanalchalarni umumiy yig‘uvchi vertikal havo tortish kanaliga quyidagi shartlar bajarilgan holda ulashga yo‘l qo‘yiladi:

kanallarni birlashtirish ventilyatsiya bloklarining bitta tiklik chegarasida, balandligi 2 m dan kam bo‘lmagan yondosh kanalchalar vositasida bajarilganda;

olti qavatli binolarda umumiy yig‘uvchi kanalga faqat pastki uch qavatning havo so‘rish kanallari, 7-8, 9-10, 11-12, 13-14 va 15-16 qavatli binolarda mos ravishda pastki 4, 5, 6, 7, va 8-qavatlar ulanganda.

296. Suv isitkich, qozon (kotyol) va pechkalarning mo‘rilarini ventilyatsiya kanali vazifasini bajarmasligi kerak.

297. Barcha qavatlarda, shuningdek taxmonsimon oshxonalar tashkil etilgan kvartiralarda sanuzel va oshxonalar alohida ajratilgan havo tortish kanallariga kirish qismida maishiy havo so‘ruvchi ventilyatorlar o‘rnatilishi kerak.

298. Ko‘p kvartirali uylar ichiga biriktirib qurilgan jamoat xonalarining ventilyatsiya tizimi uyning ventilyatsiya tizimidan alohida bo‘lishi kerak.

Yong‘in-portlash xavfi bor moddalar saqlanmaydigan va 1,5 karra havo almashinuvi yetarli bo‘lgan ichki qurilgan jamoat xonalaridagi tabiiy ventilyatsiya kanalini, ko‘p kvartirali uyning ventilyatsiya tizimiga ushbu SHNQning 294-bandi talablariga rioya qilgan holda birlashtirish (qo‘shish)ga yo‘l qo‘yiladi.

299. Turar joy obyektlarining oshxonalarida plita ustiga havo so‘rgich o‘rnatish loyihalash topshirig‘i bilan belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi.

300. Turar joy obyektlarida havoni konditsionerlash, mustaqil (avtonom) konditsionerlardan foydalanib bajariladi.

Ia va Ib iqlimiy zonalardagi binolarning 1 — 4 xonali kvartiralarida bitta konditsioner, undan kattaroq kvartiralarda ikkita konditsioner o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi.

301. I va II iqlimiy zonalardagi turar joy obyektlarining yashash xonalarini konditsionerlar bilan jihozlash loyihalash topshirig‘i bilan belgilanadi.

7-§. Elektrotexnika qurilmalari

302. Turar joy obyektlarida elektr yoritish va kuchlanishli elektr uskunalari SHNQ 2.04.17-24ga muvofiq loyihalanishi lozim.

Elektr uskunalarining konstruksiyasi, tayyorlanishi, o‘rnatilish usuli, izolyatsiyasining sinfi va himoyalanganlik darajasi elektr tarmog‘idagi kuchlanishga hamda atrof-muhit sharoitiga mos kelishi zarur.

303. Ko‘p kvartirali uylarning elektr o‘tkazkichlari ishonchlilik darajasiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linishi kerak:

elektr plitalar hamda elektr suv isitkichlar o‘rnatilgan, balandligi 16 qavatgacha bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarga (bir-sakkiz kvartirali uylar bundan mustasno);

gazda ishlaydigan plitalar o‘rnatilgan 5 dan 10 qavatgacha bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarga;

II toifaga — (50 kishiga mo‘ljallangan umumiy yotoqxonalar);

gaz plitalar o‘rnatilgan, balandligi 5 qavatdan oshmaydigan turar joy binolariga;

III toifaga — (elektr plitalar hamda elektr suv isitkichlar o‘rnatilgan bir-sakkiz kvartirali uylar, 50 kishiga mo‘ljallangan umumiy yotoqxonalar binolar).

304. Turar joy obyektlaridagi guruhlangan elektr tarmoqlari yashirin qilib o‘tkazilishi, vklyuchatellar va rozetkalar devorga o‘yib o‘rnatilishi kerak.

Turli kvartiralar orasidagi devorga, bir kvartira doirasida bir o‘q bo‘ylab 2 ta vklyuchatel yoki rozetkani yonma-yon o‘rnatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

305. Kvartiralar hamda umumiy yotoqxonalarning yashash xonalariga xonaning har bir to‘liq va to‘liq bo‘lmagan 6 m^2 maydoniga 6A tokka mo‘ljallangan bittadan rozetkani o‘rnatish

kerak. I va II zonalardagi kvartiralarning umumiy xonasida maishiy konditsionerga uchun 10 — 16 A tokka mo‘ljallangan yerlangan kontaktli rozetka loyihalanishi kerak.

306. Kvartira yo‘laklarida yo‘laklarning har bir to‘liq va to‘liqmas 10 m^2 maydoniga 6A tokka kamida bittadan rozetka joylashtirilishi zarur.

307. Oshxonalarga 6 A tokka mo‘ljallangan uchta rozetka, maydoni 8 m^2 dan katta bo‘lgan oshxonalarga esa to‘rtta rozetka, shuningdek yerlangan kontaktli 10-16 A tokka mo‘ljallangan bitta rozetka o‘rnatilishi lozim.

Elektr plitalardan foydalanilganda 32 A tokka mo‘ljallangan va yerlangan kontaktli rozetka o‘rnatilishi zarur.

308. Kvartiralardagi konditsioneri bor xonalarning barchasiga 10-16 A tokka mo‘ljallangan yerlangan kontaktli rozetkalar o‘rnatilishi kerak.

309. Sanuzellar, vannaxona va dushxonalar, yuvinish xonalari hamda yotoqxonalarning dushxona oldidagi xonalariga himoyalanish darajasi IP54 dan kam bo‘lmagan shtepselli rozetkalarni vannadan yoki dush xonasining eshigidan kamida 0,6 m masofada o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi.

310. Yashash xonalari, oshxonalar, dahliz va verandalar, shuningdek maydoni 5 m^2 dan katta lodjiyalarda zarur bo‘lganida shiftga, lodjiyalarda esa devorga osib qo‘yiladigan yoki mahkamlanadigan umumiy yoritish yoritgichlarini o‘rnatishga mo‘ljallangan klemmali kolodkalar yoki mahkamlovchi moslamalar o‘rnatilishi kerak.

311. Maydoni 10 m^2 va undan katta bo‘lgan yashash xonalariga lampalarni ikki qismlab yoqsa bo‘ladigan ko‘p lampali yoritkichlar o‘rnatish imkoniyatini ko‘zda tutish zarur.

312. Kvartiralardagi hojatxonalarda eshik tepasida devorga patron, vannaxonalarda esa, yuz-qo‘l yuvgich tepasiga yoritkich o‘rnatilishi kerak.

313. Olti va undan ko‘p qavatli ko‘p kvartirali uylar, shuningdek 50 nafar va undan ko‘proq kishi istiqomat qiladigan umumiy yotoqxonalar avariya holatida ishlaydigan yoritish tizimi bilan ta’minlanishi lozim.

314. Yangi qurilayotgan ko‘p kvartirali uylarning pastki qavatlarida noturar obyektlari joylashgan taqdirda yarim yerto‘la va birinchi yerto‘la qavatlarida quruq transformatorlarni va dizelgeneratorlarni SHNQ 2.04.17-24ga muvofiq loyihalash kerak.

315. Turar joy obyektlarida tom qismlarining kamida 50 foiziga quyosh panellari o‘rnatilishi kerak.

316. Turar joy obyektlariga o‘rnatiladigan fotoelektrik stansiyalar SHNQ 2.04.15-23ga muvofiq loyihalanishi kerak.

8-§. Aloqa va signalizatsiya

317. Turar joy obyektlari axborot uzatish tizimlari, telefon va raqamli televideniye jamoaviy antennalari bilan jihozlanishi kerak.

318. Qariyalar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud oilalar istiqomat qiladigan kvartiralarda, umumiy yotoqxona binosidagi hojatxona, vannaxona sanitariya-gigiyena xonalaridan tashqari barcha xonalarda, 10 qavatli va undan baland ko‘p kvartirali uylarning kvartiralarida yong‘in signalizatsiyasi va yong‘in haqida xabar berish uskunalarini o‘rnatish lozim.

319. Turar joy obyektlarini qo‘riqlash va avtomatik yong‘in signalizatsiyasi tizimi bilan jihozlanishi loyihalash topshirig‘ida belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Avtomatik yong‘in signalizatsiyasi yoki o‘chirish tizimi ishga tushgandan so‘ng, eng yaqin yong‘in-qutqaruv qismining dispetcherlik xizmatiga parallel ravishda signalni chiqarish ta’minlanishi lozim.

320. Yong‘inga qarshi qurilmalarning avtomatik boshqarish temir shkaflarini birinchi qavatdagi elektr shchit xonasida joylashtirish kerak.

321. O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarga mo‘ljallangan internat uylarda xizmat ko‘rsatish xodimlarini chaqirish uchun signalizatsiya tizimi bo‘lishi kerak.

322. Uch qavatli va undan balandroq ko‘p kvartirali uylarni loyihalashda kvartiralarning kirish eshiklarida domofonlar (qulflash-so‘zlashish qurilmalari) loyihalanishi kerak.

323. Videokuzatuv kameralarini turar joy obyektlarining butun perimetri bo‘ylab ko‘rinishni ta’minlaydigan joylarga o‘rnatish lozim.

11-bob. Tabiiy yoritish va insolyatsiya

324. Turar joy obyektlarini SanQvaN 0102-25 va SHNQ 2.01.01-22ga muvofiq iqlimiy qurilish zonalarining asosiy xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalash kerak.

325. Yashash xonalari, oshxonalar, oqovalashtirilmagan hojatxonalar, zinapoya kataklari (kvartira ichidagidan tashqari), yo‘lakli turdagi binolarda umumiy yo‘laklar, vestibyullar hamda bino ichiga joylashtirilgan jamoat xonalarida tabiiy yoritilganlik ta’minlangan bo‘lishi kerak.

326. Turar joy obyektlari xonalarini tabiiy yoritishni mazkur SHNQning 7-ilovasiga muvofiq tabiiy yoritilganlik koeffitsiyentining normativ qiymatini inobatga olgan holda loyihalashtirilishi, bunda derazalar maydonining yashash xonalari va oshxona pollarining maydoniga nisbati 1:10 dan kam bo‘lmasligi kerak.

327. Yashash xonalarining derazasi joylashgan tashqi devori bilan ichki parallel devor orasidagi masofa deraza joylashgan devor enining uch karrasidan oshmasligi kerak.

Bunda, umumiy xona va yotoqxonalarda tabiiy yorug‘lik darajasi 150 (lux) dan kam bo‘lmasligi ta’minlanishi lozim.

328. Yo‘lakli turdagi turar joy obyektlarining umumiy yo‘laklar derazasining yuzasi pol yuzasining 1:16 nisbatidan kam bo‘lmasligi kerak.

329. Yotoqxonalar umumiy yo‘laklarining uzunligi tashqi devordagi derazalar orqali bir tomondan (torets) yoritilganda 24 m dan, ikki chekka tomonidan yoritilganda 48 m dan oshmasligi kerak.

Yo‘laklar uzunligi bundan ortiq bo‘lsa, oraliq tabiiy yorug‘lik maydonchalari orqali qo‘shimcha tabiiy yoritish kerak.

Ikki yorug‘lik maydonchalari orasidagi masofa 24 m dan, yorug‘lik maydonchalari bilan yo‘lak oxiridagi (torets) yorug‘lik tuynugi orasidagi masofa 30 m dan oshmasligi lozim.

Yorug‘lik maydonchasining kengligi (eni) ichkariga kirgan qismining yarmidan kam bo‘lmasligi lozim (yondosh yo‘lak kengligi hisobga olinmaydi).

Zinapoya kataklari orqali uning ikki tomonida joylashgan 12 m gacha uzunlikdagi yo‘laklarni yoritishga yo‘l qo‘yiladi.

330. Yotoqxonalarda ikki kishilik yashash guruhining va bir xonali kvartiralardagi elektr plitali hamda ventilyatsiyasi bo‘lgan ovqat tayyorlash zonalarini tabiiy yoritishsiz loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.

331. Tabiiy yoritilgan xonalar framuga, darcha yoki boshqa qurilmalar orqali shamollatilishi kerak.

332. Kvartiralar ikki tomonlama yoki yon tomondan shamollatilishi ta’minlanishi lozim.

333. Yo‘lakli (koridor) turidagi yotoqxona binolarida yashash xonalarini bevosita tabiiy yoritilgan va to‘g‘ri yoki burchak tomondan shamollatiladigan uzunligi 24 m gacha bo‘lgan umumiy yo‘laklar (koridorlar) orqali shamollatishga yo‘l qo‘yiladi.

334. Har bir yashash xonasi va oshxona kamida bitta ochiladigan derazaga ega bo‘lishi kerak (taxmonsimon oshxona bundan mustasno).

Derazaning ochiladigan tabaqasining ochiq qismining eni 0,6 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

335. Turar joy obyektlari xonalaridagi insolyatsiya davomiyligi SanQvaN 0102-25 ga muvofiq ta’minlanishi kerak.

336. Yotoqxonalarda yashash xonalarining kamida 60 foizi, internat uylarida kamida 75 foizi SanQvaN 0102-25 bo‘yicha belgilangan miqdorda insolyatsiya qilinishi lozim.

337. Turar joy obyektlarining yashash xonalarini ortiqcha quyosh radiatsiyasi va isib ketishdan saqlash SanQvaN 0102-25 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

338. I va II iqlimiy zonalarda yashash xonalarining derazalari g‘arb tomonga (gorizontning 200 — 290° sektori oralig‘i) imkon qadar qaratilmasligi lozim.

Bunda, ikki xonali kvartirada — bitta xonani, uch xonalida — ikkitagacha, yotoqxonalarda — ko‘pi bilan 25 foiz yashash xonalarini quyoshdan himoya qiluvchi qurilmalar yoki maxsus oynalar qo‘llanilgan holda, ko‘rsatilgan tomonga qaratilishiga yo‘l qo‘yiladi.

I va II iqlimiy zonalarda yashash xonalari gorizontning 200 — 290° sektoriga qaratilganda tashqi quyoshdan himoya qiluvchi qurilmalar qo‘llanilishi lozim.

339. Tashqariga chiqishi bo‘lmaydigan zinapoya kataklarining har bir qavati tashqi devordagi deraza orqali yoritilishi, bunda deraza yuzasi 1,2 m^2 dan kam bo‘lmasligi lozim.

340. Yuqoridan yoritilgan L2 turdagi zinapoya katagini ushbu SHNQning 169 — 171-bandlaridagi talablarni hisobga olgan holda uch qavatgacha bo‘lgan binolarda qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

341. Yong‘in vaqtida foydalanish uchun mo‘ljallanmagan yozgi xonalar (lodjiyalar) oynavand qilib loyihalanishi kerak (balkon va terrasalar bundan mustasno).

Qo‘shni seksiyalarga, tashqi (ochiq) zinapoyalar, avariya vaziyatidagi chiqish joylari, tutun kirmaydigan zinapoyalardagi o‘tish uchun ishlatiladigan yozgi xonalarni (balkonlar, lodjiyalar) oynavandlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

12-bob. Energiya tejamkorlik va energiya samaradorlik

342. Binoning energiya tejamkorligi va energiya samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

to‘suvchi konstruksiyalarning issiqlik o‘tkazishga keltirilgan qarshiligi, havo o‘tkazuvchanligi va issiqbardoshligi SHNQ 2.01.04-18da belgilangan qiymatlardan past bo‘lmasligiga;

isitish, ventilyatsiya, havoni konditsionerlash va issiq suv ta’minoti muhandislik tizimlari va uskunasi energiya tejamkor, avtomatik hamda qo‘l bilan boshqarishga ega bo‘lishi, shuningdek SHNQ 2.04.05-22 va SHNQ 2.04.16-23 talablariga javob berishiga;

binoning muhandislik tizimlari, markazlashgan ta’minotda, issiqlik energiyasi, sovuq va issiq suv, elektr energiyasi hisoblagichlari bilan jihozlangan bo‘lishiga.

343. Binoning optimal texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga erishish hamda isitish va konditsionerlashga nisbiy solishtirma energiya sarflarini qisqartirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

qurilish hajmi birligiga to‘g‘ri keladigan tashqi to‘siq konstruksiyalarining mumkin bo‘lgan eng kam yuzasiga ega binolarning eng ixcham hajmiy-tarhiy yechimlarni tanlash;

bino va uning xonalarini sovuq shamol va quyosh radiatsiyasi oqimlarining maqbul yo‘nalishlarini hisobga olib, gorizont tomonlariga nisbatan yo‘naltirish (oriyentatsiya);

yuqori foydali ish koeffitsiyentiga ega samarali muhandislik jihozlarini qo‘llash;

chiqib ketayotgan havo va oqova suvlarni utilizatsiya qilish (qayta qo‘llash), energiyaning qayta tiklanuvchi manbalaridan foydalanish.

344. Yangi qurilayotgan turar joy obyektlarini loyihalashtirishda ularning energiya samaradorligi va seysmik xavfsizligini kompleks ta’minlash maqsadida, to‘suvchi konstruksiyalar materiallarini QMQ 2.01.03-19 va SHNQ 2.01.04-18 talablariga muvofiq tanlash lozim.

13-bob. Turar joy obyektlarini loyihalashda maishiy chiqindilarni joylashtirish va saqlashga qo‘yiladigan talablar

345. Turar joy obyektlarida maishiy chiqindilarni joylashtirish va ularni to‘plash shoxobchalarini loyihalash lozim.

346. Chiqindi to‘plash shoxobchalari turar joy obyektlarining derazalari, dam olish joylaridan 20 metrdan kam bo‘lmagan va 100 metrdan uzoq bo‘lmagan masofada, shuningdek moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlarining qo‘riqlanadigan tegralari chegaralaridan tashqarida joylashtirilishi zarur.

347. Alohida joylashgan maydonchada (o‘tish yo‘lidan uzoqda) maxsus avtotransport vositasining konteynerlarni bo‘shatish uchun qulay kirish imkoniyati va burilish maydonchasi (12 m x 12 m) bo‘lishi lozim.

348. Konteynerlarni o‘rnatish maydonchalarining yuzasi asfaltlangan yoki beton qoplamali bo‘lishi lozim.

349. Suv turib qolishiga va konteynerlarning sirpanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida maydoncha qoplamasining qiyaligi o‘tish yo‘li qismi tarafga 5 — 10 foizni tashkil etgan holda va maxsus avtotransport vositasining kirishiga qulay tarzda o‘rnatiladi.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
1-ILOVA

Ko‘p kvartirali uylar kvartiralarining, yotoqxonalar va internat uylarning umumiy va yashash maydonlari, xonalar maydoni, obyektning qurilish hajmi, maydoni va qavatlarini hisoblash

1. Kvartira maydonini lodjiyalar, balkonlar, verandalar, terrasalar, isitilmaydigan xo‘jalik xonalari (kladovka), tamburlarni hisobga olmay, yashaladigan va yordamchi xonalar maydoni yig‘indisi sifatida aniqlash kerak.

2. Kvartira va yotoqxona yashash guruhining yashash maydonini yashash xonalar maydonining yig‘indisi deb hisoblash lozim.

3. Kvartiraning umumiy maydonini undagi xonalar, xo‘jalik xonalari (kladovka) va ichki qurilgan shkaflar hamda quyidagi pasaytiruvchi koeffitsiyentlar bilan hisoblanadigan isitilmaydigan xo‘jalik xonalari va yozgi xonalar maydonlari yig‘indisi deb hisoblash kerak:

isitilmaydigan xo‘jalik xonalari va oynavand yozgi xonalar uchun — 1,0;

ochiq lodjiyalar uchun — 0,5,

balkon va terrasa uchun — 0,3.

4. Yotoqxona va internat uylar umumiy maydonini yashash xonalari, yordamchi xonalar va jamoat xonalari maydoni hamda ushbu ilovaning 3-bandi bo‘yicha hisoblanadigan yozgi xonalar maydonlari yig‘indisini hisoblash kerak.

5. Kvartiralarning umumiy maydoni shu bino kvartiralarining mazkur ilovaning 3-bandi bo‘yicha hisoblangan umumiy maydonlari yig‘indisi deb hisoblash lozim.

6. Ko‘p kvartirali uylarning maydonini tashqi devorning ichki yuzalari oralig‘ida o‘lchangan barcha qavatlar maydoni hamda yozgi xonalar (lodjiya, balkon) maydonlari yig‘indisi deb hisoblash kerak.

Zinapoya kataklari, lift va boshqa shaxtalar maydoni ularning shu qavat sathidagi maydoni hisobi bilan bitta qavat maydoniga qo‘shilishi zarur.

Chordoq, xo‘jalik va texnik yerto‘la hamda zinapoya kataklari va lift shaxtasi tamburlarining maydoni bino maydoniga qo‘shilmasligi lozim.

7. Ko‘p kvartirali uylar xonalarining maydonini, pol sathida (plintuslarsiz) devor va pardevorlarning pardozlangan yuzalari orasidagi o‘lchamlari bo‘yicha hisoblash kerak.

Kamin (pechka) egallagan maydon xona maydoniga kiritilmasligi kerak.

Kvartira ichidagi zinapoya osti maydoni poldan chiqib turgan konstruksiya ostigacha bo‘lgan balandligi 1,6 m va undan ortiq bo‘lsa, o‘sha zinapoya joylashgan xona yuzasiga kiritilishi zarur.

Mansarda qavatidagi xona maydonini hisoblashda, qiya shiftli xonaning balandligi 1,6 m dan kam bo‘lmagan qismining maydoni hisobga olinishi kerak.

8. Ichiga yoki ichki tutashtirib qurilgan jamoat xonalarining maydoni SHNQ 2.08.02-23 ga muvofiq hisoblanishi zarur.

Kvartira ichidagi ko‘p qavatli (mnogosvetniy) xonaning maydoni binoning umumiy maydoniga faqat bir qavat chegarasida kiritilishi kerak.

9. Ko‘p kvartirali uyning qurilish hajmi ±0,00 belgidan yuqori qism (yer ustki qismi) va bu belgidan quyi qism (yer ostki qismi) hajmlari yig‘indisi deb hisoblanishi lozim.

Turar joy obyektining yer usti va yer osti qismlarining qurilish hajmi, shu qismlarning har biridagi pol sathidan boshlab, chegaralovchi yuzalar, shuningdek to‘siq konstruksiyalar, oynavand tomlar chegarasida aniqlanishi, bunda arxitekturaviy va konstruktiv elementlarning turtib chiqib turgan qismlari, texnik yerto‘la (podpolye) dagi kanallar, terrasa, balkon, kolonnali yopiq galereya (portik), tayanch (ustun)lar ustida joylashgan bino tagidagi o‘tish joylari va bo‘sh maydonlar hajmi hisobga olinmasligi kerak (sof o‘lchovda).

Turar joy obyektining qurilish hajmiga isitilmaydigan verandalar, sovuq chordoq, texnik qavat va yerto‘lalar kiritilishi lozim.

10. Turar joy obyekti quriladigan maydon binoning perimetri bo‘ylab sokol balandligidagi turtib chiqib turgan qismlar ham hisobga olingan gorizontal kesim maydoni, shuningdek ustunlar ustida joylashgan binoning ostidagi maydon va bino ostidan o‘tish joylarining maydoni sifatida hisoblanishi kerak.

11. Turar joy obyektining qavatlar sonini belgilayotganda yer ustidagi qavatlarning barchasi (texnik qavat, mansarda qavati, yarim yerto‘la (sokol) qavati), agar yopmasining usti yerning tekislangan sathidan 2 m dan balandroq bo‘lsa, hisobga kiritilishi kerak.

Turar joy obyekti ostidagi yerto‘la (podpolye) balandligidan qat’i nazar hamda balandligi 1,8 m dan kam bo‘lgan qavatlar aro har qanday bo‘shliq qavatlar soniga kiritilmasligi zarur.

Turar joy obyektining turli qismlarida qavatlar soni turlicha bo‘lganda, shuningdek bino nishab joyda joylashishi hisobiga qavatlar soni ko‘paysa, qavatlar soni binoning har bir qismi uchun alohida hisoblanishi zarur.

Yuqori qavat ustida joylashgan texnik qavat turar joy obyektining qavatlari sonini belgilayotganda va liftlar sonini hisoblashda hisobga olinmaydi.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
2-ILOVA

Yotoqxonalarning madaniy-maishiy, xo‘jalik va yordamchi xonalar tarkibi va hisobiy ko‘rsatkichlari

T/r	Xonalar	Maydoni, m^2/kishi				
		50	**100**	**200**	**400**	**600**
1.	Vestibyul-xoll, navbatchi uchun va kutish joylari bilan	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15
2.	Ma’muriyat (komendant) va xizmatchi xodimlar xonalari	0,16	0,10	0,06	0,05	0,04
3.	Shaxsiy buyumlar, sport-anjomlari, xo‘jalik, kir saqlash, tozalash anjomlarini saqlash xonalari	0,3	0,25	0,2	0,17	0,15
4.	Mashg‘ulotlar xonasi	Talaba va o‘quvchilar uchun				
		0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
		Ishchi va xizmatchilar uchun				
		0,15	0,15	0,15	0,15	0,15
5.	Dam olish xonalari	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15
6.	Ommaviy-madaniy-tadbirlar xonasi (to‘garak, o‘qish zali, videozal)	0,15	0,15	0,15	0,09	0,08
7.	Bufet, yordamchi xonasi bilan	-	0,2	0,18	0,16	0,14
8.	Maishiy xizmat xonalari	-	-	0,11	0,11	0,1
9.	Izolyator	1 koyka	1 koyka	1 koyka	2 koyka	3 koyka
		(maydoni amaldagi normalar bo‘yicha)				
10.	Kir yuvish, quritish va dazmollash xonasi	0,24	0,18	0,14	0,1	0,08
		(12 m^2 dan kam emas)				
11.	Oshxonalar	0,8	0,8	0,8	0,8	0,8
		(12 m^2 dan kam emas)				
12.	Kiyim tozalash va dazmollash xonasi	0,1	0,08	0,07	0,06	0,05
		(8 m^2 dan kam emas)				
13.	Kiyim va poyabzal quritish xonasi	Joydagi sharoitga qarab (ish xususiyatini hisobga olib) xonadan foydalanuvchining har biriga 0,2 m^2 hisobidan, biroq 8 m^2 dan kam emas				

Izohlar:

1. Yotoqxonalarning hamma turlari uchun jamoat xonalarining umumiy maydoni ushbu SHNQning 114-bandiga muvofiq qabul qilinadi. Professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari yotoqxonalari jamoat xonalari maydonining umumiy normalari tarkibida, yashash guruhi, jamoat va yordamchi xonalari ham 1 kishiga 1,6 m^2 hisobidan hisobga olingan bo‘lishi kerak (110-bandiga muvofiq).

2. 100 o‘rindan kam sig‘imli yotoqxonalarda kir saqlash va xo‘jalik xonalari, ichiga qurilgan shkaf-stellajlar bilan almashtirilishi mumkin.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
3-ILOVA

Qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylar xonalarining tarkibi va maydonlari

T/r	Xonalar	Maydoni, m^2		
		Mustaqil harakatlanuvchi kishilar uchun	**Parvarishga muhtoj kishilar uchun**	**O‘rindiqli aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun**
1	**2**	**3**	**4**	**5**
I. Yashash guruhi xonalari maydoni				
1.	Yashash xonalari		loyihalash topshirig‘i bo‘yicha**	
	1 kishiga	10 (12)*		14 (16)*
	2 kishiga	16 (18)*		18 (20)*
2.	Sanitariya xonasi (unitaz, yuz-qo‘l yuvgich, dush)	3,5	3,5	5,0
3.	Ichki qurilgan shkaf — kiyim, shaxsiy buyumlar uchun (1 kishiga)	0,5	0,5	0,5
4.	Dam olish xonasi (1 kishiga)	1,2	0,7	1,6
5.	Bufet xonasi	18 dan kam emas		
6.	Oshxona-ovqat tarqatish xonasi	16 dan kam ema		
7.	Vanna xonasi	14 dan kam emas		
8.	Sanitar xonasi, kir saqlash, quritish, supurish-sidirish anjomlari saqlaydigan joyi bilan	16 dan kam emas		
9.	Maishiy-xo‘jalik xona (narsalarni yuvish va quritish, yig‘ishtirish anjomlari saqlaydigan joyi bilan)	12 dan kam emas		
10.	Toza kir saqlash xonasi	4 dan kam emas		
II. 3-4 ta yashash guruhi bo‘limining umumiy xonalari				
11.	Hamshira xonasi (muolaja)	12	12	14
12.	Xodimlar xonasi	8	8	8
13.	Xo‘jalik-bekasi xonasi	10	10	10
14.	Xodimlar hojatxonasi	1 kabina	1 kabina	1 kabina
15.	Xodimlar dush xonasi	1 kabina	1 kabina	1 kabina
16.	Kiyim va kir dazmollash xonasi	12		
17.	Klizma qilish xonasi	14		
18.	Aravacha va o‘rindiqli aravachalarni saqlash joyi	4		
* Qavslarda yuqori qulaylikka ega yashash xonalarining maydoni berilgan. ** Kasalxona, statsionar palatalarida 1 koyka normasi (SHNQ 2.08.02-23) bo‘yicha				
III. 50 — 300 o‘rinli uy-internatlarining umumiy xonalari				
19.	Vestibyul, xoll	bir kishiga 0,3 — 0,4		
20.	Ma’muriy-xo‘jalik xonalari (mudir, xo‘jalik mudiri, xodimlar xonasi,	bir kishiga 0,4 — 0,5		

	devonxona, kadrlar bo‘limi, buxgalteriya, anjomlarni saqlash)	
21.	Dam olish, klub-to‘garak mashg‘ulotlari, teleko‘rsatuvlar tomosha qilish xonalari; tomosha zali, kutubxona	bir kishiga 0,35 — 0,65 (24 — 30 m^2 o‘lchamdagi xona) yashovchilar soni 200 nafardan oshganda (tarkibi va maydoni loyiha topshirig‘i bilan belgilanadi
22.	Tibbiy xizmat ko‘rsatish va davolash-sog‘lomlashtirish muolajalari xonalari feldsher xonasi mudir xonasi	12 — 14 (yashovchilar soni 100 dan kam bo‘lmaganda) 12 (yashovchilar soni 200 dan kam bo‘lmaganda)
	terapevt shifokori xonasi	12 (100 o‘ringa va undan ortiq)
	maslahatchi shifokorlar xonasi (laringolog, oftalmolog)	har biri 18 m^2 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	stomatolog xonasi	14 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	muolaja va bog‘lash xonasi	18 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	elektr bilan davolash muolaja xonasi, yordamchi xonasi bilan	14 — 16 (+8) (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	issiqlik bilan davolash (ozokerit) muolaja xonasi, yordamchi xonasi bilan	14 (+8) (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	asbob-uskunani saqlash xonasi	6 dan kam bo‘lmagan
	xodimlar uchun sanitariya uzellari va yig‘ishtirish anjomlarini saqlash xonasi	3 + 3
	davolash jismoniy tarbiya xonasi	40 — 80 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	zal qoshida yechinish va dush xonalari (erkak va ayollar uchun)	2 x (12+3)
	massaj xonasi	14
	dorilarni saqlash va tarqatish xonasi (dorixona)	6 m^2 dan kam bo‘lmagan (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	yengil yonuvchan suyuqliklarni saqlash xonasi	3
	ekspress laboratoriya xonasi	8 m^2 dan kam bo‘lmagan (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	sterilizatsiyalash xonasi	10
	meditsina xodimlari xonasi	8 m^2 dan kam bo‘lmagan
23.	Qabul xonasi	
	vestibyul (g‘ildirakli katalkalar joyi bilan)	12 (+2)
	tekshirish xonasi (sanitariya uzeli bilan)	18 (yashovchilar soni 100 nafardan oshganda)
	vaqtincha joylashtirish xonasi (sanitariya uzeli bilan)	14 (yashovchilar soni 100 nafardan oshganda)
24.	1-2 palatali izolyator (sanitariya uzeli bilan)	14 (har bir palataga)

	Post	4
25.	Morg xonasi (sovitish kamerasi bilan)	10 + 6 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
	xodimlar xonasi (yechinish xonasi, hojatxona va dush bilan)	9 + 3
26.	Arxiv	8 — 10
	Chetdan kelgan qarindoshlar uchun yotoqxona (sanitariya uzellari bilan 1-2 xona)	14 (har bir xonaga)
27.	Maishiy xizmat xonasi (sartaroshlik, pedikyur)	14 — 20 (yashovchilar soni 100 nafardan oshganda)
28.	Oshxona	sig‘imini 60 — 80 % ga (amaldagi sog‘lomlar hisobidan) 1,3 zaldagi 1 o‘rin uchun amaldagi me’yorlar bo‘yicha
	ovqatlanish zali	
	ovqat pishirish bloki	
29.	Pochta va bank xizmatlari xonasi (vestibyulda)	10 — 12 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
30.	Vestibyuldagi navbatchi posti	6
31.	Vestibyuldagi savdo kioski	6 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
32.	Vestibyul qoshida sanuzellar	5
33.	Xo‘jalik xonalari:	
	yuvilgan choyshablar va kiyimlar saqlanadigan xona	10 — 12
	yuvilmagan choyshablar va kiyimlar xonasi	6 — 8
	shaxsiy buyumlar xonasi	12 — 16
	mavsumiy kiyimlar xonasi	12 — 16
	mebellar xonasi	12 — 16
	jihozlarni ta’mirlash xonasi	12 — 16
	bog‘dorchilik anjomlari saqlash xonasi	6 — 8
	xo‘jalik ombori	15 — 16
	yong‘in posti xonasi	4
34.	Zararsizlantirishi (dezinfeksiya) kamera xonasi	18 — 24 (yashovchilar soni 200 nafardan oshganda)
35.	Mehnat terapiyasi ustaxonalari	Loyihalash topshirig‘i bo‘yicha (6 — 8 bitta ish joyiga)

Izoh: Xonalar tarkibi va maydonlari loyihalash topshirig‘i bilan o‘rnatiladi.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
4-ILOVA

Ixtisoslashtirilgan kvartiralar xonalarining taxminiy tarkibi va maydoni

Xonalar tarkibi	Xonalar maydoni, kamida (m^2)					
	1 xonali		2 xonali	2 xonali 2 kishiga	3 xonali 3-4 kishiga	4 xonali 4-5 kishiga
	1 kishi	2 kishi	2 kishiga			
	Qariyalar uchun			nogironligi bo‘lgan shaxs mavjud oilalar uchun		
Yashash xonalari:						
Umumiy xona	16	18	16	18	20	22
2 kishilik yotoqxona	-	-	16	-	16	16
1 kishilik yotoqxona	-	-	-	-	-	10
nogironligi bo‘lgan shaxs yotoqxonasi	-	-	-	16	16	16
Yashash maydoni	16	18	32	34	52	64
Yordamchi xonalar						
Dahliz (aravacha uchun joy bilan), yo‘laklar	4	6	4	6	8	8
Oshxona	8	8	8	9	9	10
Sanuzel	3,5	3,5	4	5	8	10
Xo‘jalik xona (kladovka)lari, ichki qurilgan shkaflar	1,0	1,0	2	2-3	4	6
Umumiy maydon	32,5	36,5	50	56	81	98

Izoh: Kvartira xonalari tarkibi va maydonlari loyihalash topshirig‘i bilan belgilanadi.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
5-ILOVA

Ixtisoslashtirilgan kvartirali uylarda jamoat xizmat ko‘rsatish xonalarining tarkibi va maydonlari

T/r	Xonalar	Maydon, hisobidagi birlikka m^2	Maydon, m^2, hisobdagi kontingentni sonida (qariyalar va aravachadagi nogironligi bo‘lgan shaxslar)		
			50	100	150
1.	Vestibyul-xoll qorovul, taksofon, savdo kioski (sayyor), ko‘chalik o‘rindiqli aravachalar saqlash joylari bilan	0,2	kamida 12	20	30
2.	Ma’muriy-maishiy xonalar (ma’muriyat va xo‘jalik bekasi xonalari, maishiy xizmat punkti, kirxona quritish va dazmollash xonasi bilan, xo‘jalik va supurish-sidirish anjomlari xonasi, sanuzel)	0,8	40	80	120
3.	Madaniy-ma’rifat xonalari, havaskorlik mashg‘ulotlari, mehmonxona, o‘quv zali, telexoll, ommaviy tadbirlar zali, stol usti o‘yinlari	0,8	34	80	120
4.	Tibbiy xonalar (hamshira xonasi, muolaja, massaj, fizioterapiya, davolash jismoniy tarbiya zali)	0,2	kamida 14	20	30
5.	nogironligi bo‘lgan shaxs ishlaydigan ustaxona	joylardagi sharoitga qarab			
	Jami:	**2,0**	**100**	**200**	**300**

Izohlar:

1. Xonalar tarkibi va maydonlari loyihalash topshirig‘i bilan belgilanadi. Ijtimoiy uylarda madaniy-maishiy xonalarning umumiy maydoni 1 kishiga 1,5-2,0 m^2 hisobidan kelib chiqib qabul qilinishi kerak.
2. Tijorat xizmati xonalarini ko‘rsatilgan hisobiy ko‘rsatkichlardan tashqari qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.
3. Nogironligi bo‘lgan shaxslar ustaxonalarining maydoni loyihalash topshirig‘i bo‘yicha o‘rnatiladi.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
6-ILOVA

Liftlarning minimal soni

Binoning qavatlari	Liftlar soni	Yuk ko‘taruvchanligi kg	Tezligi m/s	Qavatdagi kvartiralarning eng katta maydoni, m^2
9 gacha	1	630 yoki 1000	1,0	600
10 — 12	2	400, 630 yoki 1000	1,0	600
13 — 16	2	400, 630 yoki 1000	1,0	500

Izohlar:

1. 630 yoki 1000 kg yuk ko‘taruvchi lift xonalarining gabaritlari 2100x1100 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

2. 1 yashovchiga 16 — 18 m^2 yashash maydoni, qavat balandligi — 3,0 m, lift harakati intervali 81 — 100 sekund hisobidan kelib chiqib tuzilgan.

3. Qavatlardagi kvartiralar maydoni, qavat balandligi va 1 yashovchiga umumiy maydon, jadvalda qabul qilingan ko‘rsatkichlar qiymatidan farq qiladigan turar joy binolarda, liftlar soni, tezligi va yuk ko‘taruvchanligi hisoblab o‘rnatiladi.

4. Yuqori qavatlarida ikki sathli kvartiralar joylashgan turar joy obyektlarida liftni sathlardan bittasida to‘xtashiga yo‘l qo‘yiladi.

5. Yo‘lakli turdagi ko‘p kvartirali uylarida har 100 ta kvartiraga bitta lift, kvartiralar soni 100 tadan ortiq bo‘lgan holda har 100 taga qo‘shimcha bitta lift o‘rnatilishi lozim.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
7-ILOVA

Turar joy obyektlari xonalarini tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti (TYOK) ning me’yorlangan qiymatlari

Xonalar	**Geografik kenglik**	**TYOKni me’yorlangan qiymatlari, pol sathida %**		
		Derazalarni gorizontga nisbatan joylashishi		
		136 — 225°	**225 — 315° 46 — 136°**	**316 — 45°**
Yashash xonalari, oshxona, jamoat xonalari	40° va shimolroq	0,3	0,3	0,4
Zinapoya kataklari, umumiy yo‘laklar,	40° va janubroq	0,2	0,3	0,6
Oqovalashtirilmagan hojatxonalar	hamma joyda	0,1	0,1	0,1

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
8-ILOVA

Turar joy obyektlari uchun yo‘l qo‘yiladigan shovqin darajasi

T/r	Xonalar yoki maydonlar nomi	Kun vaqti, soat	Tovush bosimi darajasi, *dB*, o‘rtacha geometrik chastotali oktava bo‘lmalarida, *Hz*								Tovush darajasi, *dB*	Qisqa vaqtdagi tovushning maksimal darajasi, *dB*
			63	125	250	500	1000	2000	4000	8000		
1.	Kvartiralar, qariya va nogironligi bo‘lgan shaxslar uy-internatlarining yashash xonalari	7-23 23-7	63 55	52 44	45 35	39 29	35 25	32 22	30 20	28 18	40 30	55 45
2.	Yotoqxonalar yashash xonalari	7-23 23-7	67 59	57 48	49 40	44 34	40 30	37 27	35 25	33 23	45 35	60 40
3.	Turar joy uylarga bevosita yondosh maydonlar*)	7-23 23-7	75 67	66 57	59 49	54 44	50 40	47 37	45 35	43 33	55 45	70 60
4.	Yotoqxona binolariga bevosita yondosh maydonlar*)	7-23 23-7	79 71	70 61	63 54	58 49	55 45	52 42	50 40	49 38	60 50	75 65

** — to‘suvchi konstruksiyalardan 2 m da.*

Izohlar:

1. Havoni konditsionerlash, havoli isitish va ventilyatsiya, shuningdek tonal yoki impulsli shovqin uchun qiymatlar 5 dB yoki 5 dBA ga kamaytiriladi.

2. Shovqin manbaiga o‘girilgan, to‘suvchi konstruksiyadan 2 m narida transport vositalaridan (avto, temir yo‘l, aviatsiya) hosil bo‘ladigan shovqin uchun tovush darajasi dBA ni, 10 dBA ga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

SHNQ 2.08.01-24 “Turar joy obyektlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalariga
9-ILOVA

Ko‘p kvartirali uylar fasad qismiga sovutish va isitish qurilmalarining jihozlarini (split) o‘rnatish talablari

1. Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlari (split) binolarning fasad ko‘rinishini buzmagan holda joylashtirilishi, bunda ularni dekorativ panjaralar yoki maxsus himoya qutilari bilan berkitishga yo‘l qo‘yiladi.

2. Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlarini (split) balkon yoki lodjiya ichki qismiga binoning tashqi ko‘rinishini buzmaydigan tarzda o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi.

Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlarini (split) balkon yoki lodjiya ichki qismiga o‘rnatilganda SHNQ 2.01.02-04 ga rioya qilinishi lozim.

3. Qurilishi rejalashtirilayotgan turar joy obyektlarini loyihalash jarayonida sovutish va isitish qurilmalarining jihozlarini (split) o‘rnatish uchun tashqi devorlarda maxsus o‘yiqlar ko‘zda tutilishi kerak.

4. Turar joy obyektlarining tom qismida sovutish va isitish qurilmalarining jihozlarini (split) o‘rnatishda ushbu jihozlar uchun metall konstruksiyali platforma tashkil etishga yo‘l qo‘yiladi.

5. Dekorativ qoplamalar va nishalarni to‘liq yopiq holatda o‘rnatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda havo aylanishini ta’minlash uchun ventilyatsiya teshiklar bo‘lishi lozim.

6. Sovutish va isitish qurilmalarining kondensat suvi maxsus drenaj quvuri orqali chiqarilishi, bunda kondensat suvining qo‘shni deraza tokchasi, balkon yoki piyodalar yo‘lagiga oqib tushishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlari (split) tebranishni kamaytiruvchi maxsus dempfer yostiqchalar (rezina yoki shunga o‘xshash boshqa materiallardan) orqali mahkamlanishi, shuningdek jihozlar ishlashi natijasida hosil bo‘ladigan shovqinning yo‘l qo‘yiladigan darajasi SanQvaN 0008-20 da belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshmasligi kerak.

8. Sovutish va isitish qurilmalari jihozlarining (split) kabel va quvurlari binoning fasad ko‘rinishiga uyg‘un tarzda, mazkur jihoz ortidan o‘tkazilishi, bunda barcha quvurlar hamda elektr kabellari himoyalangan va muhofazalangan bo‘lishi lozim.

9. Qor va yog‘ingarchilik miqdori ko‘p bo‘lgan hamda quyosh nurlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushadigan hududlarda sovutish va isitish qurilmalarining jihozlari (split) ustidan himoya soyaboni o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi.

10. Sovutish va isitish qurilmalarining tashqi jihozlari maxsus mustahkamlash kronshteynlari yordamida qo‘shimcha tarzda mahkamlanishi lozim.

11. Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlari (split) o‘rnatilgan joyda texnik xizmat ko‘rsatish uchun erkin harakatlanish hamda xizmat ko‘rsatish ishlarini xavfsiz bajarish imkoniyati ta’minlangan bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2024-yil 14-avgustdagi 01/2-57-son buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘z kuchini yo‘qotgan deb topilayotgan ayrim shaharsozlik normalari va qoidalarining

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2019-yil 15-oktabrdagi 480-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SHNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalari.

2. O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2020-yil 25 sentabrdagi 258-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SHNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalariga kiritilgan 1-son o‘zgartirishlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2022-yil 18-fevraldagi 22-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SHNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalariga kiritilgan 2-son o‘zgartirishlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 13 oktabrdagi 341-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SHNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalariga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi buyrug‘i (hisob raqami 219, 2023-yil 23-noyabr).